

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

**5110900- FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI YO`NALISHI BITIRUVCHISI**

SHERBOYEVA GULMIRANING

**“BADIY MATNDA SOTSIOL CHEGARALANGAN SO`ZLAR“
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

D.NE`MATOVA

ANDIJON 2017

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I bob. Lugʻaviy birliklarda ijtimoiylik belgisining aks etishi.....	6
1.1. Lisoniy birliklarda chegaralanganlik va chegaralanmaganlik.....	6
1.2. Sotsial chegaralangan birliklar.....	12
II bob. Badiiy matnda sotsial chegaralangan soʻzlarning funksional qoʻllanish xususiyatlari.....	23
2.1. Varvarizm – uslubiy vosita sifatida.....	23
2.2. Badiiy matnda vulgarizmning qoʻllanishi.....	29
2.3. Dialektizmlar.....	46
2.4. Badiiy matnda argo va jargonlar.....	50
Xulosa.....	56
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.....	58

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekistan Respublikasi mustaqil davlat sifatida rivojlanishni boshlagandan beri ilm-fan va milliy madaniyatimizning har bir sohasida jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi.

Bu o'zgarishlar eng avvalo shu kungacha erishilgan ilm-fan yutuqlarini milliy mafkura va milliy istiqlool g'oyalari talablari asosida qayta ko'rib chiqish, umumlashtirish va kelgusida bajarilish lozim bo'lgan ishlarni rejalashtirish jarayonida ko'zga tashlandi. Zero, «yangisini ko'rmay turib eskisini buzmaslik» tamoyilining boshqa sohalardan ko'ra ko'proq ilm-fanga tatbiq qilinishining zarurati haqida to'xtalishga ehtiyoj yo'q. Chunki muayyan bir fanning taraqqiyoti o'tmishda yaratilgan kashfiyotlarning umumlashtirilishi va unga davr ehtiyojlarini hisobga olib qo'shilgan yangiliklar bilan belgilanadi. Har qanday fan milliy qadriyatlar zahirida taraqqiy etish barobarida umuminsoniy qadriyatlar bilan hamohang bo'lmog'i lozim.

Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vosita bo'lmog'i lozim» degan fikrlarini eslash joiz deb bilaman. Ilm ana shunday ulug'vor maqsadga xizmat qilishi lozim. Buning uchun tadqiqotchi o'z ishiga sadoqat va mas'uliyat bilan yondashishni vijdoniy burch deb bilmog'i lozim bo'ladi.

Tilshunoslik fani misli ko'rilmagan yutuqlarni qo'lga kiritdi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Buni tilning barcha sathlari bilan bog'liq, muammolarning o'rtaga tashlanishi va olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ham ko'rsatib turibdi. Bugungi kunda gapdan yirik sintaktik butunlik - matnning lingvistik tabiati bilan bog'liq, tadqiqotlar miqdori ortib bormoqda.

Matn muammosi hozirgi kunda jahon tilshunosligida, xususan, o'zbek tilshunosligida ham eng dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, murakkab tuzilishga ega bo'lgan badiiy matnning shakllanish tarzi, badiiy matnni shakllantiruvchi vositalar, komponentlari o'rtasidagi leksik-

semantik munosabatlarning tadqiqotchilar e'tiboridan tushmayotganligi mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Ishning o'rganilish darajasi. O'zbek tilshunosligida badiiy san'atlarning lisoniy-uslubiy tahlili masalasi Navoiy asarlari misolida XX asrning 60-yillaridan keyin o'rganila boshlandi¹. Hozirgi o'zbek she'riyatida badiiy vositalarning lingvopoetik xususiyatlariga bag'ishlangan ishlar mavjud bo'lsa-da, she'riy san'atlar yetarli tahlilini topgan emas. Stilistik figuralardan antiteza, anafora alohida ishlarning mavzu obyekti bo'lgan².

Ishning maqsadi:ushbu mavzu orqali sotsial chegaralangan so'zlarning badiiy matnda qo'llanilish xususiyatlarini tadqiq etish maqsad qilindi. Badiiy matnning shakllanishida sotsial chegaralangan so'zlarning o'rni, varvarizm va vulgarizmlarning morfolologik, grammatik va semantik xususiyatlarini aniqlash bitiruv malakaviy ishning asosiy vazifalari qatoriga kiradi.

Ishning vazifalari:maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutildi:

- o'zbek tilshunosligida sotsial chegaralangan so'zlarning qay darajada o'rganilganligini aniqlash;
- badiiy matnning shakllanishi va matn butunligini ta'minlashda sotsial chegaralangan so'zlarning ahamiyatini o'rganish, xususan, qahramonlar nutqida, dialogik nutqning shakllanishida dialektizm, varvarizm va vulgarizmlarning vazifasini tekshirish;
- badiiy matnda qo'llanilgan varvarizm va vulgarizmlarning funksional xususiyatlarini o'rganish.

Ishning obyekti. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sotsial chegaralangan so'zlarning nazariy masalalarini dalillashda Said Ahmad, Tog'ay Murod, Oybek, O'.Hoshimov va boshqalarning badiiy asarlaridan olingan misollar.

Ishning metodologik asoslari va metodlari. Mavzuni yoritishda hozirgi

¹Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1979; Ҳамидова З. Навоий бадий санъатлари. –Тошкент: Университет, 2001.

²Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нутқида антитеза. Филол.фанлари номзоди...дис. автореф. –Т.: 2000; Рихсиева Г. Шеъриятдаги гапларнинг актуал бўлинишида анафоралар ўрни. Филол.фанлари номзоди...дис.автореф. –Т.: 1999.

kunda o'zbek tilshunosligi qo'lga kiritgan yutuqlardan hamda rus va jahon tilshunosligida bayon qilingan nazariy fikrlardan, shuningdek, keyingi paytlarda keng tarqalgan metodologik tamoyil va usullardan ijodiy foydalaniladi. Shuningdek, keyingi paytlarda keng tarqalgan metodologik tamoyil va yondashuvlardan reduksiya (ma'lum yaxlitlik tizim, «murakkablik»ni uning nisbatan sodda tarkibiy kismlari orqali bilish) tamoyili, yaxlitlik (ma'lum bir yaxlitligi boshqa yaxlitliklar bilan o'zaro aloqadorlikda bilish) tamoyili induksiya (alohida faktlarga asoslanib umumiy mulohaza yuritish), deduksiya (ma'lum umumiy koidalarga asosan xususiy xulosalar chiqarish) metodlari hamda tavsifiy, qiyosiy-tasnifi, kontekstual, komponent tahlil kabi tadqiqot metodlariga murojaat qilindi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy sahifasi 59 betdan iborat.

I BOB. LUG'AVIY BIRLIKLARDA IJTIMOIIYLIK BELGISINING AKS ETISHI

1.1. Lisoniy birliklarda chegaralanganlik va chegaralanmaganlik

Tildagi mavjud soʻzlar isteʼmol doirasiga koʻra xilma-xil boʻladi. Ularning asosiy qismini koʻpchilik aholi bir xil qoʻllasa, baʼzilarini faqat muayyan kasb-hunar egalari yoki maʼlum hududda yashaydigan kishilargina qoʻllaydi xolos. Masalan, *yer, suv, osmon, havo, tosh, qum, aytmoq, bilmoq, uxlamok, oʻtirmok* kabi soʻzlarni barcha oʻzbek tilida soʻzlashuvchilar qoʻllasa, *bistar* – kelin-kuyov uchun maxsus tikilgan shoyi koʻrpa (Buxoro), *barak-chuchvara* (Buxoro), *birinjoba-mastava* (Buxoro), *qiyar-bodring* (Shovot) kabi soʻzlarni maʼlum territoriyada yashovchi kishilargina qoʻllaydi: *byuretka, lakmus, fenolftalein, fungitsid* (ximiya atamaları) kabilarni esa fanning muayyan sohasi bilan shugʻullanuvchi ziyoli kishilargina ishlatadilar. Shuning uchun oʻzbek tili leksikasini isteʼmol doirasiga koʻra asosan ikki qatlamga ajratish mumkin.

1. Qoʻllanish doirasi chegaralanmagan, umumisteʼmoldagi leksika.

2. Maʼlum doiradagina qoʻllaniladigan, isteʼmol doirasi chegaralangan leksika¹.

Ishlatilish doirasi chegaralanmagan leksemaga koʻpchilik aholi uchun umumiy boʻlgan lugʻaviy birliklar kiritiladi. Bunday soʻzning asosini oʻzbek tilida soʻzlashuvchi har bir kishining nutqida ishlatiladigan, oʻzbek tilida soʻzlashuvchilarning barchasi uchun tushunarli boʻlgan lugʻaviy birikmalar tashkil etadi.

Oʻzbek tili lugʻat tarkibining asosiy qismini oʻzbek xalqining barcha aʼzolari uchun umumiy boʻlgan va qoʻllanilishida muayyan hudud yoki maʼlum faoliyat sohalari bilan chegaralanmagan leksika tashkil qiladi. Qoʻllanish doirasiga koʻra

¹Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1985. –Б.11; Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullayeva M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.: 2009.-B.223.

chegaralanmagan leksikaga kundalik hayotda tirikchilik munosabatlari uchun eng zarur bo'lgan narsa va hodisa, jarayonlarni anglatadigan so'zlar kiradi. Chegaralanmagan leksik qatlam asosan turg'un bo'lib, o'zbek tilining barcha uslublarida qo'llanila oladi. Chegaralanmagan leksikaga oid so'zlar barcha so'z turkumlarida bor. Otlar – *daryo, suv, yer, osmon, tosh, tog`, bog`, daraxt, uy, devor, ko`cha, vodi, sahro, qum* kabi; sifatlar – *oq, qizil, sariq, qora, katta, kichik, keng, tor, uzun, qisqa, chiroyli, aqlli, dono, barno* kabi; sonlar – *bir, ikki, uch, to`rt, besh, olti, yeti, sakkiz, to`qqiz, o`n, yigirma, o`ttiz, qirq, oltmish, yetmish, sakson, to`qson, yuz, ming, million* kabi; olmoshlar – *u, bu, shu, ana, mana, siz, biz* kabi; fe'llar – *bor, kel, ket, yur, tur, o`tir, uxla, yot, ayt, qo`y, o`t* kabi; ravishlar – *tez, sekin, oz, kam, ko`p* kabi; bog`lovchilar – *va, ham, ammo, lekin, biroq, goh, yoki, yoinki* kabi; yuklamalar – *-u, -ku, -da, -yu* kabi; undovlar – *oh, voh, voy, dod, uh, ura* kabi.

Chegaralanmagan leksikaning shu qatlamga xos belgisining ajratishda ularni asosan adabiy til normativlariga moslik darajasi va kundalik hayotda ko'p qo'llanuvchi belgilari bosh mezon sifatida olinadi.

Shuning uchun ham chegaralanmagan qatlamga xos so'zlarning sinonimik qatorlari bilan keltirilishining o'ziyiq ularning oppozitsion belgilarining o'zaro qiyoslashiga olib keladi, natijada chegaralanmagan qatlam uchun olingan har qanday so'z uslubiy xoslanish belgisini darhol namoyish etadi. Bunda chegaralanmagan qatlamga xos so'zning ham qo'llanish doirasi faqat ma'lum stil yoki so'zlashuv nutqi uchun xosligi aniq bo'lib qoladi. Shu sababli ham har qanday so'z iste'mol doirasiga ko'ra chegaralanmagan yoki chegaralanganlik belgisini aniqlash uchun bosh mezon sifatida berilayotgan so'zning faol qo'llanishi, ikkinchidan, berilgan so'zning semantik strukturasida neytrallik yoki stilistik bo'yoq hisobga olinishi mumkin (tug'ri dialektal va professional so'zlarda, terminlarda stilistik bo'yoq degan belgi bo'lmaydi, biroq bu so'zlar tasnifi uchun birinchi printsipting o'zi etarli hisoblanadi).

Ba'zi so'zlarning semantik strukturasidagi stilistik bo'yoq yoki stilistik xoslanish belgisi ularni chegaralanmaganlik-chegaralanganlik belgisi mavjudligi yoki mavjud

emasligini aniqlashni talab qiladi. Masalan: so'zlamog-gapirmog shikoyat qilmog-nolimog, kelmog-tashrif buyurmog, qora-qaro, ziyorat qilmog borib ko'rmog, suv-suyuqlik va hokazo.

Chegaralanmagan qatlarga xos so'zlar barcha turkumlarda uchraydi. Qo'llanishi jihatdan chegaralanmagan leksika tarkibiga kundalik muloqotda real nom sifatida namoyon bo'luvchi quyosh, yer, oy, ota, ona, bola, oq, qora kabi so'zlarning olish mumkin. Bularda chegaralanmaganlik belgisi va doimiy qo'llanish belgisi etakchidir. Shuning bilan birga bular eng qadimiy so'zlardir.

1.Chegaralanmagan leksika tarkibidagi so'zlarning bosh ma'nosi ko'pincha aniq bo'ladi, agar boshqa tildan o'zlashgan so'zning ma'nosi noaniqroq bo'lsa, mazkur xalq o'z hayot tajribalari va tushunchalaridan kelib chiqib, u so'zlarga ma'no aniqligi kiritadi.¹Bunday hollarda:

a) ma'noni oydinlashtirish uchun boshqa tildan kirgan so'z bilan o'z so'zimiz birga qo'llanadi. Masalan, *chang to'zon, harsang tosh, bulka non, bosh-oyoq sarupo, o'rta miyona, og'ir vazmin, osmoni falak, norasida go'dak* kabi.

Bunday birga qo'llanish natijasida sinonimik so'zlardan birining ma'nosi o'zgarib, biri ikkinchisining ma'nosini kuchaytiradi. Masalan, *sarupo* so'zi *bosh-oyoq* so'zi bilan qo'llanganda, *bosh-oyoq kiyim* ma'nosini anglatadi, *xarsang* so'zining o'zi tojik tilida katta tosh ma'nosini bildirsa, o'zbek tilida „tosh“ ma'nosini anglatish uchun yana tosh so'zi qo'shib qo'llaniladi: ota-onasi – yirtqichlarcha bo'g'izlangan norasida go'daklarning ko'zlarida yosh. Ularning shu ahvolga tushishiga bosmachilar sababchi (M. Xudoyqulov). Sizning piyozingiz bosh-oyoq sarupo bo'ladigan bo'lsa, rafqon piyozi betiga ro'mol yopib olsa bo'lar ekan, - dedi Qudrat, xaholab kulib (M. Ismoilij). Kecha sahar paytida osmoni falakda turna o'tdi (Said Ahmad).

b) o'rin va shaxs otini anglatuvchi negizga yana joy va shaxs oti yasovchi affisklar qo'shiladi. Masalan, *maktab – maktabxona, bog'cha- bog'chaxona, pochta – pochtaxona, ombor – omborxona, do'kon – do'konxona, og'il – og'ilxona, attor- attorchi, go'rkov – go'rkovchi* kabi. Bunday holat asosan odiiy

¹Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Universitet. 2006. –B.89.

soʻzlashuv leksikasiga xosdir: *Shu onda Mohlar oyim maktabxonadagi bolalar ichidan Anvarni chaqirib oldi (A.Qodiriy). Hovli-joy uch taqsim boʻldi... Yoʻldoshga oʻzi oʻtirgan xona bilan ayvonning yarmi-yu, omborxona-oʻchoqboshi tegdi (S.Anorboyev).*

d) maʼnoni kuchaytirish, davomlilikni anglatish uchun sinonimik juft soʻz yoki bir soʻning oʻzi takrorlanib keladi. Masalan, *orzu-tilak, sogʻ-salomat, jon-jon, zor-zor, oʻla-oʻlguncha, olam-olam, dasta-dasta, togʻ-togʻ, xirmon-xirmon, qop-qop, katta-katta, quchoq-quchoq, toʻda-toʻda, duv-duv, dir-dir, dagʻ-dagʻ, toʻq-toʻq* kabi.

Misollar: *Nurining qaynanasi goh-goh kelib Gulnorga boqishar va uni maqtar edi. – Qop-qop oltin-kumush toʻkib olsa, arziydigan qizsan. Ilohim, baxtli boʻl! (Oybek) Xotinimning bu gapiBoʻtaboyning jon-jonidan oʻtib ketdi, lekin bundagi kuchli mantiq tilini bogʻladi-yu, hech narsa deyolmadi (A.Qahhor).*

Chegaralanmagan leksika tarkibidagi sinonimik soʻzlar oʻzarojuda nozik farqlarga ega boʻladi. Masalan, *ayb, gunoh, jinoyat* sinonimlari rasm-odat normlariga, qonun-qoidaga qarama –qarshi xatti-harakat maʼnosini ifodalaydi.*Gunoh* maʼnoni ayb soʻziga nisbatan kuchli ottenkada ifodalaydi.*Jinoyat* qonun-qoidaga xilof xatti-harakat maʼnosida qoʻllaniladi.

Sinonimik qatordagi bosh soʻz odatda chegaralanmagan leksikaga oid boʻladi, undan tashqari, sinonimik qatordan boshqa emotsional boʻyoqqa ega boʻlgan soʻzlar ham chegaralanmagan leksikaga taalluqli boʻlishi mumkin. Masalan, *bosh* sinonimik qatorida *kalla* vayuz sinonimik qatorida *bet, aft, bashara, jamol, diydor* soʻzlari ham chegaralanmagan leksik qatlamga tegishli. Bunda *bet, aft, bashara* soʻzlari salbiy ottenkaga ega boʻlsa, *jamol, diydor* soʻzlari ijobiy ottenkaga egadir. *Ingichka uzun oyoqlarini chaqqon bosib, chiroyli boshini ozod koʻtarib kelayotgan qashqa saman birdan paxsa devor tomonga burildi (M.Ismoilij).* “*Bir ogʻiz gap bor*”,-dedi *Soli sovuq kallasini boʻyin tomiri uzilib ketgudek egib (M.Ismoilij).* *Sherbekning koʻziga Xoʻjabekovning aftidan naxs tomayotgandek jirkanch koʻrinib ketdi. (S.Anorboyev).*

Baʼzan oʻzakdosh soʻzlarning hammasi ham bir xil oʻzakdagi soʻzlar bilan

sinonim bo`lib kelmaydi. Aloqa ehtiyojiga ko`ra mazkur nehizdan yasalgan ba`zi shakllar boshqa ma`nodagi so`zlar bilan sinonim bo`lib, boshqa sinonimik qatorni boyitadi, Masalan, *o`rin* so`zi *joy* so`zi bilan, *o`rinlashmoq* so`zi *joylashmoq* so`zi bilan sinonim bo`lgani holda *o`rinlatmoq* so`zi esa *joy* so`zi bilan hech aloqasi bo`lmagan *bajarmoq*, *boplamoq* so`zlariga sinonim bo`lib keladi.

Chegaralanmagan leksika, garchi qo`llanish jihatidan birmuncha turg`un bo`lib, o`zbek tili leksikasining asosini tashkil etsa ham, jamiyat taraqqiyoti bilan birga sekin-asta o`zgarib, rivojlanib boradi.

Chegaralanmagan leksika asosan quyidagi manbalar hisobiga boyiydi, rivojlanadi.

1. Mavjud so`zlardagi ma`no rivoji hisobiga. So`z odatda ma`lum predmet, hodisa, jarayonning ifodasi sifatida paydo bo`lganda bir ma`noli bo`ladi, ya`ni birgina narsani ataydi. Keyinchalik u boshqa narsa, hodisa, belgi yoki harakatlarga ham ko`chiriladi. Shuning uchun ham chegaralanmagan leksika tarkibidagi so`zlarning ko`pchiligi polisemantik so`zlardir. Masalan, *tog`*, *tosh*, *til*, *tish*, *yer*, *suv*, *oq*, *qora*, *o`qimoq*, *tortmoq* kabi so`zlar bilan bosh ma`nolaridan tashqari yana bir qancha ma`nolarga ega bo`lgan.

Tosh so`zi *tog`* jinsi, narsalarning vaznini o`lchashda ishlatiladigan qadoq, kasallik tufayli ayrim organlarda yig`iladigan qattiq modda, berahm shafqatsiz ma`nolarida qo`llaniladi. *Suv ketar, tosh qolar, o`sma ketar qosh qolar* (Maqol). *Shu shanbadan qoldirmay to`yni boshlaylik: semiz qo`y yotsirab yana ikki kun ovaat yemasa, toshini yo`qotadi, ozib qoladi.* (S.Abdulla). *Nomim ulug`u ko`pga bosh edim, Ba`zan xushfe`l, ba`zan tosh edim* (Jurnal). Bundan tashqari, ular quyidagi iboralar tarkibida ko`chma ma`noda ham keng qo`llaniladi: *boshida tosh chaqmoq, boshidan tegirmon toshi yurgizmoq, boshing toshdan bo`lsin, boshi toshga tegdi, tosh otmoq, og`zinga tosh* (yomon nafas qilgan kishiga nisbatan), *toshingni ter* (boraver), *tosh qotmoq – metin bo`lib qotmoq, tosh qotib uxlamoq, tosh boylamoq* kabi.

2. Boshqa tildan o`zlashgan so`zlar umumxalqqa tushunarli va umumiste`molda bo`lsa, chegaralanmagan leksikaga kiradi. O`zbek tilidagi keng xalq

ommasiga tushunarli bo`lgan ko`pgina tojik va arab o`zagiga aloqador so`zlar shular jumlasiga kiradi: *devor, darvoza, ohak, mix, reja, dasturxon, dazmol, chiroq, gugurt, poyondo, sandiq, taxta, shisha, sher, jonvor, fil, maymun, bulbul, kaptar, bedana, chinor, gilos, anjir, paxta, piyoz, sabzi, sholi, shona, shox, bodom, gul, lola, binafsha, bahor, hafta, dutor, shoyi, doka, yakshanba, dushanba, seshanba, chorshanba, pul, savdo, feruza, gavhar, vatan, davlat, hukumat, amal, vakil, rais, idora, siyosat, xalq, hayit, arafa, kasb, kosib, shoir, maqol, ilm, maktab, kitob, xabar, savol javob, avlod, ajdod* kabi. Rus tilidan kirgan: *elektr, sement, samolyot, tramvay, konfet, pechenye, kostyum, palto, tarelka, shkaf, shifoner, teplovoz, paravoz, stol, stul* kabi ko`plab so`zlar chegaralanmagan leksikaning ajralmas qismidir.

3.Fan, texnika, madaniyatga va boshqa sohaga oid atamalar ko`pchilik iste`moliga o`tgach, chegaralangan leksik qatlamdan chegaralanmagan leksik qatlamga yalanadi: *radio, televizor, aeroport, kosmonavt, ofitser, futbol, shofyor, agronom* va b.

4.Ba`zi dialektal so`zlar (ko`proq badiiy asarlar orqali) adabiy tilga o`zlashganidek, chegaralanmagan leksika tarkibiga ham o`tadi. Masalan, *yelvagay* (ust kiyimning yengini kiymay yelkaga tashlash), *no`may* (serob, ko`p), *archimoq, aymoqi* (ko`milmaydigan tok), *tezkor, ziyod* kabi.

Shevalardan adabiy tilga o`zlashgan so`zlarning ba`zilari boshqa turkiy tillarda ham qo`llaniladi. Adabiy tilga o`zlashgan *ta`til* so`zi shevalarda ‘nonushta’ ma`nosida, adabiy tilda ‘kanikul’ ma`nosida qo`llaniladi. Ozarbayjon tilida bu so`z ‘kanikul’ va ‘ish tashlash’ ma`nolarida qo`llaniladi. Demak, bu so`zda umuman ishdan, o`qishdan to`xtash, dam olish kabi umumiy ma`no bor ekan.

Lekin chegaralanmagan leksikada *ta`til* emas, ko`proq *kanikul* ishlatiladi. Tildagi bir qancha so`zlar ko`p ma`nolari bilan umumiste`molda bo`ladi. Masalan, sir so`zining ‘sekret’ ma`nosidagi o`zagidan yasalgan *sirli, sirdosh, sirlashmoq* so`zlari, ‘bo`yoq’ ma`nosidagi o`zagidan yasalgan *sirchi, sirlamoq* so`zlari chegaralanmagan leksik qatlamga mansub. Shuningdek, *joy* so`zi ‘o`rin’, *jamo* so`zi ‘aholi’ va ‘qishloq’ ma`nolarida chegaralanmagan leksik qatlamga mansub

bo`ladi.

Ba`zi so`zlar chegaralanmagan leksika tarkibida bir ma`noda, mahalliy shevada boshqa ma`noda qo`llaniladi. Masalan, *tuymoq* chegarlanmagan leksikada ‘yanchmoq’, shevalarda esa ‘sezmoq’ va ‘tugmoq’ ma`nolarida ishlatiladi.

Shunday qilib, chegaralanmagan leksika o`zbek xalqining barcha vakillari tushunadigan va qo`llaydigan, umumiste`moldagi eng zarur so`zlar bo`lib, o`z ichiga oddiy so`zlashuv leksikasini, terminologik leksikaning bir qismini, adabiy til leksikasining asosiy qismini qamrab oladi. Chegaralanmagan leksika asosan so`z yasash, mavjud so`zlardagi ma`no o`zgarishi, boshqa tillardan (asosan rus tili), qisman tayanch dialektlardan, terminologik leksikadan so`z qabul qilish hisobiga, jamiyat taraqqiyoti bilan sekin-asta o`sib, rivojlanib, sayqallanib boradi. Shu tariqa chegaralanmagan leksika adabiy til leksikasi rivojiga ta`sir etadi.

Ba`zi dialektal so`zlar adabiy tilda boshqa ma`nosi bilan chegaralangan qatlamga xos bo`lsa, ikkinchi ma`nosi bilan chegaralanmagan qatlamga xos bo`ladi: masalan: qayroqi-tog` etaklarida tosh qatlami ustida paydo bo`lgan, dehqonchilik uchun yaroqlidir.

Bu ma`nosi bilan chegaralangan qatlamga kiradi.

Qayroqi – marg`ilon shevasida qishda ko`milmaydigan tokka nisbatan qo`llanadi. Ayrim so`zi izohli lug`atda qishda ko`milmaydigan tokka nisbatan deb izohlangan.¹

Dialektda esa yosh bola bilan aymoqi bo`lma, teng bo`lma ma`nosida qo`llanadi.

Umuman, ba`zi sheva va dialektdagi so`zlarning adabiy tilga o`tishi bilan ular chegaralanmagan qatlamga xos bo`la boshlaydi. Chegaralanmagan qatlamga so`zlashuv leksikasi, terminologik leksikaning bir qismi, adabiy til leksikasining asosiy qismi kiradi.

1.2. Sotsial chegaralangan birliklar

Lug`aviy birliklarning iste`mol doirasi jihatidan chegaralanishi turlicha bo`ladi.

Sotsial chegaralangan qatlamni quyidagicha bo`lish mumkin:

1. Dialektal leksika.

¹Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.-B.234.

2. Maxsusprofessional-terminologik leksika.
3. Argo va jargonlar.
4. Varvarizm vavulgarizmlar.

Dialektalleksikama`lumhududdayashaydiganhammakishilarqo`llaydigan,

o`shahududaholisinutqigaxosbo`lganso`zlardir.

Bundantashqari,

dialektalleksikafaqatog`zakinutqqaxosdir.

Bujihatdanuoddiyso`zlashuvleksikasigao`xshabketadi.Lekin oddiy so`zlashuv leksikasining qo`llanilish doirasi hudud jihatidan chegaralangan bo`lmaydi.

Dialektal so`zlar adabiy til leksikasi hisoblanmaydi. Badiiy adabiyotda personajlar tilini individuallashtirish uchun va stilistik maqsadlarda qo`llanilgan dialektal so`zlarning hammasi ham adabiy tilga o`zlashib ketadi, deyish qiyin, albatta. Dialektal leksika adabiy tilga butunlay o`zlashib ketsa, unday leksika dialektal leksika doirasidan chiqib, chegaralanmagan leksik qatlamga kiradi.

Dialektizm umum tilga emas, balki shu umum tilning mahalliy ko`rinishlari bo`lgan dialektlarga xos hodisadir. Shuning uchun bular odatda biror dialektning vakillari nutqida ishlatiladi, ko`pincha boshqa dialektning vakillariga, adabiy nutqqa ham xos bo`lmaydi.

Dialektizm asosan uch turli bo`ladi:

1. Lug`aviy dialektizm.
- 2.Grammatikdialektizmgrammatikhodisalar dagiba`zi dialektlarda o`rin ma`nosi uchun ga qo`shimchasi qo`llanadi, yo`nalish ma`nosi uchun esa-da affiksi qo`llanadi.

3.Fonetik dialektizmlar.Tovush tallafuzi va tovush o`zgarishi bilan bog`liq turi.(Unlilar ba`zi dialektlarda boshqalardagidan cho`ziqroq va yumshoqroq aytilishi, ayrim diallektlarda bir tovush o`rniga boshqasida ikkinchi bir tovushning kelishi).

Lug`aviy dialektizm o`zi ikki hil bo`ladi:

1. Leksik dialektizm.

Odatda adabiy til shevalarida so`z olish hisobiga boyib boradi. Shevada adabiy tilga kuchayotgan so`z chegaralanganlik belgisidan xalos bo`ladi. Umum adabiy

tilga o'tadi va hamma uchun tushunarli bo'lib qoladi. Biror dialektga xos so'zning badiiy adabiyotda qo'llanishi bu uning adabiy tilga o'tgani emas. Demak, ma'lum dialektizmning adabiy tilning lug'aviy birligiga aylanishi uchun esa til amaliyotini o'tashi kerak.

Umuman, dialektal leksika faqat ma'lum territoriyada istiqomat qiladigan kishilar qo'llaydigan va tushunadigan belgilarga ega bo'lganligi uchun chegaralangan qatlamga oid bo'ladi.

Dialektal leksika faqat og'zaki nutqqa xos bo'lishi bilan ajralib turadi. Bu jihatdan oddiy so'zlashuv leksikasiga o'xshab ketadi.

Oddiy so'zlashuv leksikasi chegaralanmagan qatlamga oiddir.

Dialektizm deb atash uchun bu so'z adabiy nutqda umuman yo'q bo'lishi yoki o'za leksik ma'no hajmi, leksik ma'no tarmoqlanishi, stilistik bo'yog'i bilan farqlanib turishi kerak.

Leksik dialektizm shu belgisiga ko'ra ikki turli bo'ladi:

1. Dialektizm so'z.

2. Dialektizm ma'no faqat shu dialektdagina ishlatilsayu, adabiy nutqda yo'q bo'lsa, dialektizm so'z deyiladi.

Bunday so'z lug'aviy birlik sifatida adabiy nutq uchun yangi, noma'lum bo'ladi xomak-sapcha-bolacha-tuguncha bu so'zlarning har biri alohida dialektniki. Narvon – shoti – zagii (xorazm) kabilar ham alohida dialektika va bittasi adabiy nutqqa olingan.

Ba'zi xollarda biror dialektdagi so'z boshqa dialektdagi yoki adabiy nutqdagi so'z bilan tovush tuzilishi jihatdan bir xil bo'ladi-yu, ammo leksik ma'nosiga ko'ra farqlanib turadi. Bunga dialektizm ma'no deyiladi pashsha-chivin; chivin-pashsha.

Bir leksik ma'no har xil dialektda boshqa-boshqa so'zning leksik mundarijasini tashkil qiladi. Masalan, bir dialektda pashshani pashsha deyilsa, boshqasida chivin deyiladi. Aksincha avvalgi dialektda pashsha chivin deyiladi, boshqasida chivinni pashsha deyiladi. Bu dialektizm ma'no deyiladi. Yana opoqi- Toshkentda adabiy tildagi yoshi katta ayollarga hurmat bilan murojatda ishlatiladigan

soʻz.Fargʻonaning baʻzi dialektlarida soʻzlarning esa dadasini otasiga nisbatan ishlatiladi. Bu dialektizm maʼno hajmida ham farqlanish boʻladi.

Shunday qilib, oʻzbek tili koʻp dialektli boʻlganligidan, unda adabiy tilga kirmagan, muayyan hudud vakillarigina qoʻllaydigan soʻzlar ham koʻp. U yoki bu mahlliy hudud vakillariga xos dialektal leksikaning baʼzilari badiiy adabiyotda keng qoʻllanilishi natijasida, ehtiyoj sezilsa, adabiy tilga sekin-asta oʻzlashishi mumkin. Ayniqsa markaziy tayanch shevaga xos dialektal soʻzlar adabiy tilda ekvivalenti boʻlmaganda yoki ekvivalenti boʻlganda ham maʼlum uslubiy vazifa olib adabiy tilga oladi. Bunda ayniqsa xalq moddiy-maʼnaviy hayotining oʻsishi, hududlararo turli hamkorlik aloqalarining kuchayishi, adabiyot, sanʼat va fanning rivoji katta rol oʻynaydi.

Maxsus (professional-terminologik) leksika.Maʼlum fan, kasb-hunar vakillari qoʻllaydigan va tushunadigan, muayyan normaga kirgan soʻzlar maxsus leksika deyiladi: *katapulta, anker, shkiv, rashpil, skalpel, shaber* (texnikaga oid), *oborot, renta* (siyosiy iqtisodga oid), *infinitive, abbreviatura, til oldi, til orqa* (lingvistikaga oid), *stearin, inulin* (ximiyaga oid), *insolyatsiya* (fizikaga oid), *interpolyatsiya, kogradient* (matematikaga oid), *abduktor, abduksiya* (tibbiyotga oid), *vibrato, klarnet* (musiqaga oid), *daska, angob, doʻgʻov* (kulolchilikka oid), *kaj, joʻsha* (suvoqchilikka oid) kabi.

Maxsus leksikaga birinchi navbatda atamalar kiradi. Atamalar – ilmiy texnika, qishloq xoʻjaligi va boshqa sohalarga oid tushunchalarni ifodalovchi soʻz va soʻz birikmalaridir¹. Har bir fan va kasb-hunar oʻz atamalari va leksikasiga ega. Maʼlum kasb-hunar, fan atamalarining yigʻindisi atamashunoslik deyiladi: falsafa atamalari, matematika atamalari, qishloq xoʻjaligi atamalari va boshqalar.

Atamalarni qoʻllanish doirasi jihatidan, asosan, ikki turga boʻlish mumkin. Birinchisi, umumxalq tushunadigan va qoʻllaydigan atamalar boʻlsa, ikkinchisi muayyan tor ixtisos doirasidagina qoʻllaniladigan, mutaxassislargina tushunadigan maxsus soʻzlardir. Har bir fan va texnika atamashunosligida, kasb-hunar sohasining leksikasida asosan ana shu ikki turli atamalar va soʻzlarni uchratish

¹Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1985. –Б.23.

mumkin.

Masalan, fizikada umumxalqqa tushunarli bo'lgan atamalar: *issiqlik, temperatura, jism, elektr, magnit, gaz, muvozanat, harakat, qaynash, bug'lanish, energiya, bosim, suyuqlik, zarralar, maydon* kabi; tor ixtisos doirasidagina, asosan mutaxassislar tomonidan qo'llaniladigan va tushuniladigan atamalar: *xaotik holat, gravitatsiya, diodlar, germaniy monokristali, ionlanish, termodinamika, koeffitsient, molekular kinetik nazariya, bolsman doimiyligi, broun harakati, kopillyar hodisalari, amorf jismlar, termosterlar, farromagnetizm, Avogadro soni, izoxorik jarayon, kalorimetr, kondensatsiya, superpozitsiya qoidasi* kabi.

Kimyo fanida umumxalqqa tushunarli atamalar: *toshko'mir, neft, cho'yan, alanga, suvlar, atom, tuzlar, vodorod, kislorod, oxak, kumush, mis, simob, azot, kukun, ishkor* kabi; tor ixtisos doirasidagina qo'llaniladigan atamalar: *gidroksid, sulfat kislotasi, xlorid kislotasi, oksidlar, molekular og'irlik, valentlik, byuretk, indikator, lakmus, fenolftalien, kaustik soda, insektitsid, fungitsid* kabi.

Botanikada umumxalqqa tushunarli atamalar: *o'rik, behi, tarvuz, boychechak, olma, uzum, tol, anjir* kabi; tor ixtisos doirasidagina qo'llaniladigan atamalar: *kladafora, anjabor, chigalbosh, chitir, suvsunbul, paparotnigi, zarnab, tortula* kabi.

Tibbiyotda umumxalq tiliga tushunarli atamalar: *analgin, aspirin, penitsillin, iod, gorchichnik, ko'richak, gripp, infarkt, rak, chechak, ukol, narkoz, operatsiya* kabi; tor ixtisos doirasidagina qo'llaniladigan atamalar: *pnevmoniya, gipotoniya, miokard, distrofiya* kabi.

Yuqoridagi kimyo, botanika, tibbiyot fanlarida ishlatiladigan atama misollaridan ko'rinadiki, barcha atamalarni ham chegaralanmagan leksika tarkibiga kiritib bo'lmaydi. Muayyan tor, maxsus sohalardagina qo'llaniladigan atamalar ko'proq umummilliy adabiy tilning ilmiy-texnika va publitsistik usullaridagina qo'llanilib, uning iste'mol doirasi ixtisoslik doirasi bilan chegaralangan bo'ladi.

Qo'llanilishi chegaralanmagan leksika va mutaxassislar faoliyatining, fanning ayrim sohalari bilangina chegaralangan leksika bir-biridan ajralgan alohida

sohalar emas, ular doimo bir-biriga ta'sir etib turadi. Chunki atamalarning ma'lum qismi chegaralanmagan leksik qatlamdan o'zlashgandir. Masalan, *ega, aniqlovchi, alanga, uchqun, ishqalanish, qo'shish, ayirish, birikma, bo'linma, tezlik, bosim, suyuqlik, aylana* kabi.

Shuningdek, fan va texnikaning o'zi jamiyat taraqqiyotini ifodalab, kishilarning ehtiyojlari uchun yaratilar ekan, uning atamaları ham odamlar, ularning o'zaro aloqalari, fikr almashuvlari uchun zarur narsa va tushunchalarni ifodalagani holda tilda keng qo'llaniladi. Tor, maxsus doiradagina qo'llaniladigan so'zlar umummilliy adabiy til va umumxalq leksikasining potensial imkoniyati bo'lib, o'sha so'zlarni qo'llashga ehtiyoj ko'proq sezilishi bilan u so'zlar umumxalq lug'ati tarkibida qo'llanilaveradi. Masalan, begona o'tlarni yo'qotish uchun qo'llaniladigan kimyoviy preparatlar *gerbitsidlar* deb ataladi. Mana shunday atamalar hozir qishloq xo'jalik zararkunandalarini yo'qotishda ommaviy xizmat qiladigan preparat sifatida dehqonlar ommasiga singib ketgan, uni ko'pchilik tushunadi va qo'llaydi.

Atamalarning odatdagi umumaloqadagi so'zlardan farqlaydigan o'ziga xos xususiyatlarini taxminan shunday ko'rsatish mumkin:

1. So'zlar ma'lum sohadigina ishlatilib, iste'mol doirasi chegaralangan ma'noda qo'llanilgandagina atamalarga aylanadi: Masalan, *suv, aylana, zamon, asos, o'q, tekislik, sirt, o'rik, imkoniyat* kabi. *Suv* so'zi orqali chegaralanmagan leksikada har xil suvlar tushuniladi: *oqar suv, sizot suv, quduq suv, ko'lmak suv, qor suvi, vodoprovod suvi, gaz suvi, mineral suvlar* kabi. Kimyo termini sifatida esa suv - H_2O formulasi orqali ifodalangan va 2 vodorod va kisloroddan iborat birikma tushuniladi, ana shu tarkib asosida u boshqa moddalar bilan reaksiyaga kirisha oladi.

Aylana so'zi chegaralanmagan leksika tarkibida tevarak-atrof ma'nosini bildiradi. (*Jamila o'z-o'ziga*) *meni bu temir qafasga soldilar, ixtiyorimni qo'limdan oldilar. Aylanamda qancha poyloqchi, qancha qorovullar bor.* (Hamza)

Aylana geometrik atama sifatida esa, hamma nuqtalari markazdan barobar uzoqlikda bo'lgan yopiq egri chiziqdir, huddi shu chegaralanmagan atama

ma`nosida qo`llangandagina, so`z-atama hisoblanadi. *Mazkur komanda bilan birinchi o`rinda maydon egalari imkoniyatni 92/100 hisobida boy berishgan edi* (“Toshkent oqshomi”). Misoldagi *komanda, o`rin, maydon, egalar, imkoniyat, boy berish* kabi umumiste`moldagi so`zlar sport atamalariga aylangan va chegaralangan sohadagina atama ma`nosida qo`llaniladi.

2. Atama aniq, konkret tushunchani ifodalab, emotsional-ekspressiv, modal vazifalarda holi bo`ladi. Odatda so`z ma`nosi ko`pincha murakkab bo`lib, unda tushuncha, emotsional-ekspressiv ottenka va stilistik belgi ifodalanadi. Shunga ko`ra, tilda bir tushunchani ifodalaydigan sinonimik so`zlar emotsional-ekspressiv ottenkasi yoki stilistik chegarasiga ko`ra bir-birlaridan farqlanadi.

Masalan, *osmon, ko`k, samo, falak, gardun* so`zlaridan *osmon* –keng qo`llaniladi, *samo*-kitobiy, poetic uslubga xos: *gardun*-eskirgan, kitobiy, *yuz, bet, aft, bashara, chehra, jamol* sinonimik qatoridagi so`zlar ijobiy, salbiylik ottenkalarigagina ko`ra tushuncha va uslubiy belgi ifodalaydi xolos. Atama ilmiy uslubning zaruriy elementidir. Masalan, *falsafa, materiya, zamon, makon, harakat, aloqadorlik* kabi falsafiy atamalar ilmiy-publitsistik uslubga tegishli tushunchalarni ifodalovchi atamalardir.

Tilda kichraytirish-erkalash ma`nosini bildirgan –*cha* affiksi atama tarkibida kichraytirishni emas, balki negiz bilan birga mazkur atamaga oid tushunchanigina ifodalaydi: *qalpoqcha, mushtcha, yostiqcha, yurgizuvchi aravacha* (texnika terminlari).

3. Atama nominativ vazifani bajaradi. Atamaning ma`nosi asosan tushunchaga teng bo`ladi. Chunki bir atamashunoslik doirasidagi atama monosemantik bo`lgani uchun, uning ma`nosi tushunchaga teng keladi. Ko`p ma`noli birgina so`z esa bir necha tushunchani ifodalaydi. Masalan, *paxta* – texnika o`simligi va momiq, ruschadagi *vata* tushunchasini ifodalaydi. Tushuncha predmet va hodisalarning eng muhim umumiy belgisini aks ettiradi. Shuning uchun ham tushunchaga teng ma`noli atamani eng muhim umumiy ma`nosi asosida tushunchadek ta`riflash mumkin.

4. Bir so`z bir necha sohaning atamasi bo`lishi mumkin. Unda u har bir

sohada alohida tushunchani ifodalaydi.

Morfologiya tilshunoslik termini sifatida tilda soʻzlarning oʻzgarish shakllari sistemasi, grammatikaning soʻz shakllarining yasash usullari hamda soʻz yasash qoidalari haqidagi boʻlimi, botanika atamasi sifatida esa ‘tuproqning tuzilishi va shaklini oʻrganadigan fan’, botanika atamasi sifatida esa ‘organizmlar, ularning tuzilishi va shaklini oʻrganadigan fan’, maʼnosini bildiradi.

Assimilyatsiya biologik atama sifatida ‘organizm faoliyati jarayonida organik moddalarning oʻzlashishi, singishi va hazm boʻlishi’, lingvistikada ‘soʻzlarning talaffuzida ularning tarkibidagi ikki tovushning bir-biriga taʼsir qilishi natijasida bir-biriga muvofiqlashuvi, bir-biriga singib, oʻxshab ketishi’, tarixiy-etnografik atama sifatida esa ‘biror xalqning ikkinchi bir xalq urf-odatlarini, madaniyati va tilini oʻzlashtirishi natijasida unga aralashib, qoʻshilib ketishi’ maʼnosini bildiradi.

Operatsiya atamasi tibbiyotda baʼzi bir kasalliklarni yoki organizmning shikastlangan, jarohatlangan joyini kesish, yorish, tikish maʼnosida qoʻllansa, harbiy atamashunoslikda esa biror maqsad yoki topshiriq bilan bogʻlangan jang harakatlarini anglatadi.

Abberatsiya atamasi biologiyada ‘maʼlum bir tur, navga mansub hayvonlar organizmida paydo boʻladigan oʻzgalik, oʻzgaruvchanlik, oʻzgarish’, fizikada esa yorugʻlik nurlarining linza orqali oʻtishida linza fokusidan ogʻishi, chetga chiqish hodisasini ifodalaydi.

Abberatsiya astronomiya atamasi sifatida Yerning oʻz oʻqi va Quyosh atrofida aylanishi natijasida yulduzlarning asl oʻrnidan biroz siljiganga oʻxshab koʻrinishi’ni bildiradi. Bunda terminologik omonimlar koʻrinadi.

5. Odatdagi soʻzlarning koʻpchiligi koʻp maʼnoli boʻladi, atamalar muayyan atamashunoslik sistemasida odatda bir maʼnoga ega boʻladi, shuning uchun ham atamalarning yuqorida koʻrsatilganidek maʼnosi tushunchaga teng boʻladi: Masalan, *tortmoq* soʻzining juda koʻp maʼnosi bor: a) biror yeridan ushlab oʻziga tomon surmoq; b) orqasiga tirkalgan narsani kuch-quvvat sarf qilib olgʻa yurgizmoq; d) zarralar, jismlar oʻrtasidagi joziba kuchi tufayli oʻz tomoniga moyil

qilmoq, surmoq; e) biror ishga aralashtirmoq; f) qoplamoq, yopmoq, kiymoq, tutmoq kabi; g) havo, suv va sh.k. oqimi bilan ilashtirib olib ketmoq; h) haydamoq; i) ulashmoq.

Aksioma atamasi esa birgina isbotsiz qabul qilinadigan haqiqat tushunchasini ifodalaydi. Shuning uchun ham soʻzning koʻp maʼnoliligi, poleseantizm, sinonimiya umumtil boyligi hisoblangani holda, atamashunoslikda esa salbiy hodisa hisoblanadi.

6.Tildagi barcha affikslar atama yasashida bir xil qoʻllanmaydi. Baʼzi atamashunoslikda bir affiks mahsuldor boʻlib, koʻplab soʻzlar yasashga xizmat etsa, ikkinchi xil atamashunoslikda esa boshqa affikslar mahsuldor affiks hisoblanadi. Masalan, texnika atamashunosligidagi *-gich*, *-soz* affikslari (*almashma ayirgich*, *zanjirli bogʻlagich*, *poxol bosgich*, *boʻshatgich*, *zichlagich*, *oʻgʻitlagich*, *kemasoz*, *vagonsoz*, *soatsoz*, *oynasoz*, *multiqsoz*, falsafiy atamalardagi *-izm*, *-ist*, *-chi*, *-iyat* affikslari (*materializm*, *idealizm*, *zaruriyat*, *ziddiyat*, *tasodifiyat*), botanikadagi *-simon*, *-dosh*, *-li* affikslari (*zamburugʻsimon*, *gulxayridoshlar*, *gultojixoʻrozdoshlar*, *zirkullilar*, *zigʻirgullilar*) serunum affikslardir.

7.Prefikslar yordamida ham koʻpgina atamalar yasalgan: *anti-*, *neo-*, *mikro-*, *ultra-* prefikslari ruscha-internatsional atamalar bilan oʻzlashgan prefikslardir. Masalan, *antibiotik*, *antidemokratik*, *antioksidlovchi*, *antisemid*, *mikrobakteriya*, *mikrozarracha*, *mikrokimyo*, *mikrometr*, *ultrabinafsha*, *ultramikrob*, *ultraqisqa*, *ultraqizil*, *ultrafiltr* kabi.

Jargonlar.Qiziqishlari, mashgʻulotlari, yoshlari bir xil boʻlgan juda tor doiradagi kichik-kichik ijtimoiy guruh va toʻdalar, oʻzlariga xos didlari va talablari yoki ichki zaruriyat hamda ehtiyojlardan kelib chiqib, oʻz nutqlarida baʼzan umumqoʻllanishdagi soʻzlardan farqli boʻlgan alohida soʻz va iboralarni ishlatadilar. Bunday soʻz va iboralar jargonlar deyiladi.

Maʼlum ijtimoiy sinf, tabaqa, guruh vakillari nutqida qoʻllaniladigan, baʼzan yashirin maʼnoli boʻlgan soʻzlardir. Bu soʻzlar ham chegaralangan leksik birliklar qatoriga mansub boʻlib, jargonlar yuqori sinf vakillari nutqida qoʻllanilib kelingan

dorulmulk, dorulbaqo, shaxriyori falak, oftobi olam, ne'mati jannat singari so'zlarni o'z ichiga oladi. Argolar esa, *yakan, loy, mullajiring, ko'ki, karamcha - pul, bedana* – *to'pponcha* kabi yashirin ma'noli so'zlardan iborat.

Tilning ijtimoiy-dialektal qatlamiga mansub so'zlar badiiy adabiyotda voqelikni ishonarli chiqishi uchun personajlar nutqini individuallashtirish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Argo ma'lum soha guruhlarini tomonidan qo'llanilib, boshqalar uchun sir tutiladigan terminlardir. Masalan, o'g'rilar argosida pul loyni, narsasini o'g'irlatgan kishini xarf, alaxsitib turishni o'qimoq, qo'y yoki echki bolasini to'nka, o'g'irlamoqni sotib olmoq, o'g'irlab ketuvchini o'yinchi termini bilan ataladi. Pulni otarchilar yakan, poraxo'rlar qurug'i deb ataydi.

Jargon jamoadagi tabaqalanish bo'yicha o'z tabaqasi va qarshi tabaqaga qo'llanadigan terminlar. Masalan: aslzoda, oqsuyak, qoracha, xo'ja, janob, hazrati oliy kabi terminlarni ko'rsatish mumkin.

Argotizm va jargonizmlar - biror argo yoki jargonga xos leksemalar. Argo va jargonlar biror ijtimoiy guruh yoki toifalarning, masalan, sportchilar, o'g'rilar, olibsotarlar, poraxo'rlar va boshqalarning «yasama tili»dir. Shuning uchun argo va jargonlar ijtimoiy dialektlar deb ham yuritiladi.

Argotizmlar yashirin ma'no ifodalaydi. Masalan, otarchilar orasida-yakan («pul»), ichuvchilar orasida-novcha («araq»), qizil («vino») kabi. Jargonizmlarda yashirin ma'no bilan birga tinglovchini yoki o'zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatlarini bo'rttirib baholash ottenkalari ham mavjud boladi. Masalan, talabalar jargonida: dum -«topshirilmagan imtihon», «qarz»; jonli so'zlashuvda: yo'rg'a-«yengil tabiatli», «buzuq» va b.lar.

Argotizm va jargonizmlardan badiiy asarda obraz va personajlarni tipiklashtirish maqsadida foydalanish hollari ham uchraydi.

Ba'zi hollarda nutqda o'zga tillarga xos o'zbek tiliga o'zlashmagan o'zlashishi uchun ham ehtiyoj bo'lmagan so'zlar, so'z birikmalari, iboralarni uchratish mumkin. Ularning aksariyati so'z holida (molodets, xorosho, ponyatno, otets, mamasha), so'z birikmasi holida (*zvanit qilgan, vot, bu*

boshqa gap, sdavat qildim, miyani kompostirovat qilma, otdyxat qildik, obed qildik, bratishkam bor, peredavat qildim, vklyuchat qilib yubor, appetitim yaxshi, Karim privet) turli tillarga xos soʻzlarning, soʻz va iboralarning qorishiq holda tuzilgan jumlaridan iborat boʻladi. Nutqda uchraydigan bunday soʻz, soʻz birikmalari, iboralar tilshunoslikda varvarizmlar deb yuritiladi. Varvarizmlar (yun. barbaros — aynan ajnabiy) — maʼlum bir tilga chet tillardan kirib kelgan, tilda toʻla oʻzlashmay, yotligi bilinib turadigan soʻz va iboralar. Varvarizm asosan soʻzlashuv uslubiga xos, tilning adabiy meʼyorini buzadi va uning asosiy lugʻat tarkibiga kirmaydi. Varvarizmlar nutq soʻzlanayotgan tilga xos boʻlmagan uning lugʻaviy hodisasidir. Shu sababli varvarizmlar lugʻatshunoslikda “oʻzlashtiruvchi tilga xos boʻlmagan soʻz va iboralar”, “boshqa tildan olingan, oʻzlashtiruvchi tilga xos boʻlmagan soʻz va ibora” deb izohlanadi.

Badiiy asar tilini mukammal, taʼsirchan qilish turli obraz va voqea – hodisalar ifodasidagi serjilolik va oʻziga xos boʻyoqdorlikni oshirishda tasviriy vositalarning ahamiyati beqiyosdir. Oʻquvchiga taʼsir etib, uning nafratini qoʻzgʻab taʼsirchanlikni, tasviriylikni oshiruvchi ishlatilish koʻlami chegaralangan leksikaning bir koʻrinishi vulgarizm hisoblanib, bu atama qoʻpol iboralar maʼnosida ishlatiladi.

Vulgarizmlardan badiiy asarlar tilining hamda personajlar nutqining taʼsirchanligini oshirish xususiyatlarini ifodalash maqsadlarida foydalaniladi. Bunda ham qahramon xususiyati ochiladi. Voqea – hodisa qanday sodir boʻlgan boʻlsa, shundayligicha oʻz aksini topadi.

II BOB. BADIY MATNDA SOTSIAL CHEGARALANGAN SO‘ZLARNING FUNKSIONAL QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

2.1. Varvarizm – uslubiy vosita sifatida

Badiiy adabiyot tilini o‘rganish va tahlil qilish filologiya ilmining eng muhim masalalaridan biri bo‘lganidek, adabiy til taraqqiyoti yo‘llarini aniqlab berishda ham chuqur ahamiyatga ega. Chunki badiiy adabiyot tili adabiy tilning asosini tashkil qiluvchi umumlingvistik masalalardan biri hisoblanadi.

Badiiy asar tilini o‘rganish tilshunosligimizda nisbatan keyin, ya‘ni XX asrning 30-yillaridan jiddiy boshlangan bo‘lsa-da, bugungi kunda adabiyotshunosligimizning ham eng dolzarb, munozarali muammosiga aylandi.

O‘tgan davr ichida badiiy asar tilini tadqiq etuvchi o‘nlab ilmiy asarlar yozildi. Bu ishlarda badiiy asar tilini o‘rganish usullari, uning maqsad va vazifalari haqida turli qarashlar asoslab berilgan. Jumladan, X.Doniyorov va S.Mirzaevlar badiiy asar tilini o‘rganishning ikki aspektini ko‘rsatadilar: «1. Lingvistik aspekt. Bu aspektda adabiy tilning o‘rish-o‘zgarishlarini, undagi grammatik kategoriyalar va so‘zlarning leksik-semantik o‘zgarishlarini aniqlash, nazariy fikrlarni isbotlash uchun badiiy adabiyot tilidan ko‘rgazmali material sifatida foydalanadilar... 2. Stilistik aspekt. Yozuvchining so‘z tanlash san‘ati, obrazlar xarakterini til vositasida ochish va individuallashtirish mahorati, yozuvchining umumxalq tiliga bo‘lgan munosabati... kabi masalalar ustida fikr yuritilib, yozuvchining mahorati, uning o‘ziga xos tili haqida hukm chiqariladi»¹.

O‘zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tilining keng o‘rganilayotgan aspektlaridan biri leksik – stilistik aspekt bo‘lib, badiiy asar tilini bu usulda o‘rganish tilshunoslik uchun qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, adabiyotshunoslik uchun ham shu darajada muhimdir. Zero, til vositasi badiiy asarda fikr, tushuncha ifodalovchi birlik sifatida chegaralanib qolmaydi, balki badiiy asar asosini tashkil qiluvchi obrazlilikka xizmat qiladi. Badiiy asarning mazmuni, g‘oyasi ana shu obrazli til tufayli vujudga kelishi natijasida asarning estetik mohiyati oshadi. Shunga ko‘ra, badiiy adabiyot tili obrazli til bo‘lib, kommunikativ vazifa bajarish bilan

¹Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. –Тошкент: Фан, 1962. –Б.56

birga, kishiga estetik zavq ham bag'ishlaydi. Badiiy adabiyot tili adabiy tilga bevosita ta'sir qilib, til madaniyatini o'sishini, rivojlanib borishini ta'minlab turadi. Shunday ekan, badiiy adabiyot tilini o'rganish va tahlil qilish o'ziga xos nazariy va amaliy ahamiyati bor.

O'zbek filologiyasida badiiy adabiyot tilini o'rganishga bag'ishlangan bir qator ishlar adabiyotshunoslik aspektidagi ishlardir. Shuning uchun ham bunday tadqiqotlarda badiiy asar tili badiiy uslub bilan, mahorat masalalari bilan bog'liq ravishda tekshirilgan. Bu xildagi tadqiqotlarda O.Sharafiddinovning poemalar tili va uslubining o'rganishga bag'ishlangan ishi¹ hamda S.To'rabekovning "Til va uslub"² monografiyasini alohida ta'kidlash lozim.

Bir qator ilmiy ishlarda biror aniq ijodkorning tildan foydalanish mahorati haqida bahs yuritadi. Bunday ishlarda badiiy asar tilining adabiyotshunoslik va tilshunoslik omillari baravar tekshiriladi. Chunonchi, H.Doniyorov, Q.Samadovlarning "Hamid Olimjonning tildan foydalanish-dagi novatorligi"³ maqolasida H.Olimjonning poetik tili, tasvirlash mahorati va novatorligi haqidagi fikr yuritilsa, N.Shukurovning "G'.G'ulomning tildan foydalanish mahoratiga doir"⁴ maqolasida G'.G'ulomning poetik tili va mahorati haqida fikr yuritiladi.

«Badiiy asar tilini o'rganish ijodkorning o'ziga xos badiiy vositalarini aniqlash, uning badiiy mahorati, o'ziga xos uslubini o'rganishdir». Shuning uchun har qanday badiiy asar tili tadqiq etilayotganda yozuvchining qaysi tasviriy vositalardan, xususan, «xalq jonli tili boyliklaridan qanday foydalanishi, uning neologizmlarni qanday qo'llashi, yangi so'z va iboralar yasashi» tadqiqotchining diqqat markazida bo'ladi.

Keyingi yillarda badiiy asar tili, badiiy asar nutqining individual xususiyatlarini, badiiy tasvir vositalarini o'rganish hamda badiiy asarni lingvo-poetik tadqiq qilishga alohida e'tibor berilmoqda.

Adibning so'z tanlashdagi va qo'llashdagi mahoratining tadqiq etilishi

¹ Шарафиддинов О. Замон-қалб-поэзия. —Т., 1962.

²Тўрабекова С. Тил ва услуб. —Т.: Фан, 1963.

³ Дониёров Х., Самадов Қ. Ҳамид Олимжон тилдан фойдаланишдаги новаторлиги // Шарқ юлдузи. 1959, - №7.

⁴ Шукуров Н. Ғ.Ғулумнинг тилдан фойдаланиш маҳоратига доир. // Ўзбек тили адабиёти. —Т., 1959, -№4.

tilshunosligimiz rivojida o'ziga xos ahamiyatga ega. Chunki aynan mana shu jihat orqali yozuvchining individual uslubi yaqqol ko'rinadi. Shuning uchun tilshunosligimizda ijodkor badiiy nutqining o'ziga xosligi, uning til vositalaridan foydalanishi kabi jihatlar bosh mavzu darajasiga ko'tarilib bormoqda. Keyingi yil ichida R.Doniyorov¹, R.Normurodov, M.Yo'ldoshev, G.Keldiyorova, Yo.Sayidov, F.Bobojonov, G.Muhammadjonova, S.Boymirzayeva, L.Jalolova, M.Qosimovalar tomonidan o'zbek adiblaridan ayrimlari ijodining lisoniy tadqiq etilishi ham buning dalilidir. Tadqiqotlarning katta qismi nasriy asarlar tilini o'rganishga bag'ishlangan. Bu ishlarning yuqori ilmiy saviyasini inkor etmagan holda, nazmiy asarlar lingvopoetikasiga ham e'tiborni kuchaytirish badiiy nutq lisoniy tarkibini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlamoq joizdir.

Muhammad Yusuf she'rlari G.Muhammadjonova tomonidan o'tgan asrning 80- yillar oxiri 90- yillar boshlarida adabiyotimizga kirib kelgan Shavkat Rahmon, Usmon Azim, A'zam O'ktam, Iqbol Mirzo kabi shoirlar ijodi bilan birgalikda lingvopoetik tadqiq etildi.

Shuni aytib o'tish joizki, bunday ajnabiy so'z va iboralar madaniy nutq tozaligini buzadi. Nutqning tozaligi deganda unda til elementlarining ishlatilishida adabiy til me'yorlarida amal qilish-qilmaslik tushuniladi. Yaxshi namunaviy nutq hozirgi o'zbek adabiy tili talablariga mos holda shakllangan bo'lishi, turli g'ayriadabiy va g'ayriaxloqiy til elementlaridan holi bo'lishi kerak. Bu masalaning til jihatli bo'lib, nutqiy tozalikning tildan tashqari – paralingvistik jihatlari ham undan kam bo'lmagan ahamiyatga ega. Chunki u boy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ega bo'lgan va bugun mustaqillik davrida yashab, dunyo hamjamiyati bilan teng mavqeda muloqotda bo'layotgan o'zbek xalqining madaniy darajasiga mos bo'lishi lozim.

Varvarizmlardan, odatda, o'zga yer va xalqlarga xos rasm-odatlarini tasvirlashda, ba'zan chet el madaniyati oldida sajda qiluvchi personajlarning

¹Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги. Филол.фан.номзоди...дис. автореф. –Т.: 2000;Йўлдошев М. Чўлпон бадий тил маҳорати. Филолог. фанлари номзоди дисс... автореф. – Т., 2000; Келдиёрова Г. Ўзбек бадий нутқида антитеза. Филол.фанлари номзоди дисс... автореф.-Т.,2000. Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси.. Филол. фанлари номзоди дисс... –Т.: 2001; Мухаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи. . Филол. фанлари номзоди дисс... –Т., 2003.

nutqini individallashtirishda foydalaniladi. Ammo ba'zi shaxslar o'z nutqlariga e'tibor bermay, pala-partishlik bilan tilimizga kirib, o'zlashmagan "zayavleniya yozdi", "boshliq zaynat", "organizovat qil", "dokument topshirdi" kabi qoliplarda gapiraveradilar.

H.Ahmedova "Buvi" hikoyasida ayrim varvarizm (ajnabiy) so'zlarning noo'rin va nomaqbul shaklda ishlatilayotganligini qattiq tanqid qiladi:

"Keksaygandan keyin odam arazchi, injiq bo'lib qolar ekan. Bolalari dasturxon ustidan ominsiz turib ketishsa, kampirning achchig'i chiqadi va og'ir "uf" tortadi. Bu uyda hech kimning ismi to'liq aytilmaydi. Santa, Rajda, Mamam, Kampirsho, Bayuba, Babul kabi nomlar bilan chaqirishaveradi. Lekin har gal nabiralari "Baba" deb chaqirganda, beixtiyor lablari titrab, achchiqlanaveradi.

- Ena degil, uyingga bug'doy to'lgur èki acha de, katta oyi de, babang nimasi, nima, men senga kuchukmanmi? ... Xudo ko'rsatmasin, vaqti kelib, omonatimni topshirgunday bo'lsam, bularning bittasi "voy mamul" bittasi "voy babul", deb ovoz chiqarisharmikan?"

Ayrim shaxslar nutqida, avval ham ta'kidlanganidek, rasmiy, siyqa (shablon) so'z va iboralarning noo'rin ishlatilishi (ma'lumki, kerak bo'lsa, biz bilamizki); shuningdek, "bekorchi (parazit) so'zlar" deb ataluvchi (ya'ni, masalan, xo'sh, tak kabi) lug'aviy birliklarni me'yordan ortiq qo'llash nutqning notabiiy va ishonchsiz chiqishiga olib keladi.¹

Ayrim kishilarning o'z nutqini nazorat qilmasligi, "yoqimli" so'z qidirishda erinchoqlik qilishi, ruscha atamalarining o'zbekcha shakllarini bilmasligi, ba'zi hollarda o'zining ruschani ham bilishligini namoyish etishga intilishi natijasida varvarizmlar nutqqa kirib keladi: Ertalab *zvonit qildim*, *biblioteekaga bordim*, *astanovkada turdim* kabi. Nutqimizda mana shunday so'zlarning uchrab turishi juda achinarlidir. Ulardan qutilishning birdan – bir yo'li ona tilini har tomondan chuqur o'rganish, unga hurmat bilan qarash,

¹ Турсунов У., Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент, Ўзбекистон, 1992. - Б.123.

soʻz qoʻllashga alohida eʼtibor berish, badiiy asarlarni koʻp oʻqish, oʻqiganda notanish soʻzlar maʼnosiga diqqat qilish kabilar.¹N.Mahmudov tilshunoslikda varvarizmlar deb yuritiladigan boshqa til birliklarini oʻzbek tiliga oʻzlashgan, adabiy tilning leksik meʼyorlari sirasidan oʻrin olgan chet soʻzlardan farqlash kerakligini taʼkidlaydi. Uning fikricha har qanday chet soʻz emas, balki faqat varvarizmlar nutqning sofliğini buzadigan unsurlar sifatida qaraladi. Rus, ingliz, arab, fors va boshqa tillardagi soʻz va birikmalarni oʻzbekcha nutqda ishlatish, avvalo, nutqning sofliğini tamoman yoʻqotadi, qolaversa, bunday qilish oʻzbek tiligagina emas, balki ayni paytda mazkur xorijiy tillarga ham hurmatsizlikni koʻrsatadi. Baʼzi kishilar nutqlarida varvarizmlarni qoʻllarkan, bu bilan oʻzlarining boshqa tillarni ham bilishlarini, madaniy saviyasining yuqoriligini koʻrsatgandek boʻladilar. Aslida esa bu madaniy-maʼrifiy saviyaning pastligi, tafakkurning torligi, maʼnaviyatning qashshoqligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nopisandlikning ildiz otganligini namoyon etuvchi holatdir. Masalan, **zvonok chalindi** (qoʻngʻiroq chalindi), **pererivga chiqdik** (tanaffusga chiqdik), **zvonit qildi** (qoʻngʻiroq qildi), **voobshe** (umuman), **koroche** (qisqasi), **tak** (xoʻsh) kabi bir qancha soʻz va birikmalarning oʻzbekcha nutqda boʻlishi nutq tuzuvchi til sezgisining tubanligi va maʼnaviy dunyosining yoʻqsulligini koʻrsatishdan boshqa bir ishga yaramaydi.

Bu oʻrinda shuni ham aytib oʻtmoq lozimki, ilmiy va ilmiy – ommabop matnlarda misol, dalil sifatida boshqa tillardagi manbalardan fikrning aniqligi, ishonchliligini taʼminlash maqsadini koʻzda tutib aynan olingan, iqtibos qilingan xorijiy tildagi soʻz, birikma va jumlar varvarizm deb baholanmaydi. Bu bayon qilinayotgan ilmiy fikrning asosligini, manbaga yondashuvning xolisligini koʻrsatishga xizmat qiladigan maqbul usul sifatida dunyoning aksar mamlakatlarida, tillarida anʼana tusini olgan.

M.Yoʻldoshyev “Choʻlpon soʻzining sirlari” kitobida varvarizmni boshqa soʻzlardan ajratish kerakligi haqida shunday fikrlarni bildiradi: Badiiy asarda

¹Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов Қ. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати.-Тошкент: “Иқтисод-молия”, 2006.-Б.27.

qo‘llangan har qanday ajnabiy so‘z yoki iborani varvarizm deb qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Masalan, “Kecha va kunduz” romanida *shafe, mustahiq, alalxusus, dasisa, kasirul-adad, itob* kabi juda ko‘plab arabcha, *ori, sarzanish, xonaqoh, gulbun* kabi ko‘plab forsha so‘zlar ishlatilgan, ammo ularni varvarizm deb qarash mumkin emas. Bu kabi so‘zlar bizning tilimizda, ayniqsa, yozma adabiyotimiz tilida turli tarzda har xil sabab bilan juda eski zamonlardan qo‘llanib keladi. Boshqacha qilib aytganda, bu arabcha, forsha so‘zlar umumiy Sharq madaniyatiga daxldor tushunchalarning ifodachilari sifatida bizga begona emas. To‘g‘ri ular o‘zbek tilining bugungi faol lug‘atida yo‘q, lekin boyligimizning o‘ziga xos bir qismi, ya’ni eskirgan qatlami sifatida mavjud. Bunday leksik birliklar eskirgan so‘zlar o‘laroq badiiy matnda o‘zlarining boy lisoniy-estetik vazifasini bajaraveradi. Ajnabiy so‘z o‘zbek tilida varvarizm bo‘lishi uchun u o‘zbek tiliga yot bo‘lishi shart.

Varvarizmlarning mohiyati aniqlashtirilar ekan, yana bir jihatga oydinlik kiritish joizga o‘xshaydi. “O‘zbek tili leksikologiyasi”da bunday so‘zlarning asosiy belgisi haqida quyidagilar yozilgan: “Varvarizmlar ham chet til so‘zlari bo‘lib, ularning muhim belgilaridan biri hali transliteratsiyaga usramaganligi, qaysi tilga oid bo‘lsa, shu til grafik vositalarida berilishidir”¹.

Bizningcha, varvarizm uchun uning qaysi til grafik vositalarida berilishining ahamiyati yo‘q, chunki varvarizm faqat yozma badiiy matndagina emas, balki bunday matnning og‘zaki o‘qilishi yoki ijrosida ham varvarizm bo‘laveradi. Biron-bir chet tiliga oid so‘z yoki ibora o‘zbek tilida o‘sha til harflari bilan ifodalanganda ham, o‘zbekcha harflar bilan ifodalanganda ham u so‘zning ma’no-mohiyati aslo o‘zgarmaydi.

Shunday ekan, varvarizmning asosiy belgisi uning ajnabiy so‘zligi va o‘z tiliga tamoman yotligidir.²

M.Yo‘ldoshyevning “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari”³nomli monografiyasida varvarizm haqida boshqa bir fikrni aytadi.

¹ Ёўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. -Тошкент, Маънавият, 2002. –Б. 45.

² Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлили. -Тошкент, Ўқитувчи, 1995.-Б.35.

³ Ёўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Фан, 2007; Ёўлдошев М.Бадий

Tilning lugʻat tarkibiga kiritilmagan, faqatgina ogʻzaki nutqda mavjud boʻlgan bunday chet soʻzlaridan badiiy nutqda qahramon xarakteri, milliy mansubligi va ichki dunyosi tasvirida hamda voqea-hodisaga xorijga xoslik taʼkidini berish maqsadida ishlatiladi. Shuningdek, voqealar boʻlib oʻtayotgan oʻringa ishora qilish yoki nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning milliy mansubligi haqida maʼlumot berish istagi bilan ham kiritilishi mumkin. Bunday birliklar varvarizm (ayrim adabiyotlarda ekzotizm)lar deb yuritiladi. Masalan, quyidagi parchada tatar millatiga mansub Fatxullin ismli amaldor nutqida keltirilgan varvarizmlar qahramon xarakterini toʻliq ochib berishga xizmat qilgan: - *Oʻxu, tolkoviy malay shul. Bundan otlichniy kommunist chiqa. Ul partiya uchun atisidan kechdi. Dinsiz ekanini dokazat etish uchun kolbasa yib koʻrsatdi. Buni oʻz koʻzingiz bilan koʻrdingiz. Tolko patriot kommunistgina kolbasani shunday yeyishi mumkin. Bravo, bravo!* (S.Ahmad)

Xullas, varvarizmlar badiiy nutqda yozuvchining mahorati bilan oʻziga xos estetik vazifani bajaradigan vositaga aylanadi. Badiiy asardagi personajlarning xarakteri, ichki dunyosi, madaniy – maʼrifiy saviyasi kabi bir qator jihatlarni taʼkidlab ifodalashda varvarizmlar alohida oʻrin tutadi. Yana, shuni taʼkidlash lozimki, varvar soʻzlarni qoʻllash nutq madaniyatiga xilof deb qaraladi.

2.2. Badiiy matnda vulgarizmning qoʻllanishi

Har qanday tilning leksik-semantik imkoniyatlari, birinchi navbatda, badiiy asar orqali yuzaga chiqadi. Badiiy asar tilini oʻrganish voqealar, hodisalar roʻy bergan davr tilini ham oʻrganish demakdir.

Oʻzbek tilining lugʻat tarkibidan oʻrin olgan shunday soʻzlar mavjudki, ular kundalik turmush uchun zarur boʻlib, ayrim soʻzlovchi yoki yozuvchining turli xil ruhiy holatlarini, his-hayajonini, predmet, voqea va hodisalarga munosabatini ifodalab, faqatgina tor doiradagina qoʻllanadi. Bunday soʻzlar qatoriga umumxalq jonli tilida ishlatiladigan “vulgarizmlar - adabiy tilda ishlatilmaydigan dagʻal,

qo‘pol so‘z va iboralar”¹ kiradi. Badiiy matnda vulgarizmlardan, asosan, “personajlar tilini individuallashtirish, milliy va sotsial kolorit hosil qilish”,² nutqning emotsional-ekspressivligini kuchaytirish, qahramonlarning qiyofasi hamda ma’naviy-axloqiy saviyasini namoyon qilish maqsadlarida foydalaniladi. Vulgarizmlar nutqda yozuvchi tomonidan qahramon xarakterini ochish, g‘oyani to‘ldirish, syujetni mukammallashtirish maqsadida alohida urg‘u bilan to‘yintiriladi. Kitobxon tafakkurida salbiy tasavvurga asoslangan xarakter obrazi shakllantiriladi. Bular, albatta, lingvovulgar vositalar yordamida ifodalanadi.

“Vulgarizmlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy tasvirdagi stilistik roli kabi masalalar o‘zbek tilshunosligidagi ayrim darslik va qo‘llanmalarda yo‘l-yo‘lakay aytilgan fikrlarni hisobga olmaganda, hozircha na leksik, na stilistik planda atroflicha o‘rganilgan. Holbuki, tilning lug‘at tarkibini bir sistema sifatida o‘rganishda badiiy asar tilida uchraydigan til leksik sistemasida o‘z mustaqil o‘rniga ega bo‘lgan vulgarizm, so‘z va iboralarning semantik strukturalari, etimologiyasi, stilistik rolini aniqlash yozuvchining so‘z ishlatish uslubi manerasini belgilash uchun muhim ahamiyat kasb etadi”.

Keyingi paytlarda talabalar hamda yoshlar nutqida uchrayotgan “dum”, “hachcha”, “mejdunarodniy”, “lokomativ”, “nishtyak” kabi ma’nosi faqat ularning o‘zlarigagina tushunarli so‘zlarni ijobiy baholab bo‘lmaydi. Nutq tozaligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan til birliklaridan biri vulgarizmlar hisoblanadi. Vulgarizmlardan badiiy adabiyotda ayrim qahramonlarning dag‘al-ligini, madaniyatsizli-gini ko‘rsatish uchun foydalaniladi. Ammo bunday so‘zlar odatiy nutqda ishlatilmaydi. Nutqiy tozalikka rioya qilmaslik uning ta’sir kuchini pasaytiradi:

Hozirgi yoshlarning beti yo‘q, - dedi o‘rta yoshlardagi bir kishi avtobusda o‘tirib ketayotgan o‘smirga ishora qilib, amakinga joy bersang, o‘lasanmi? Holbuki, shu gap “Uka, amakingizga joy bersangiz yaxshi bo‘lar

¹Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М., 1960. - С.109.

²Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. -Тошкент: Фан, 1983. –Б.33.

³Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. -Тошкент: Фан, 1982. –Б.58.

edi” shaklida, iltimos ohangida aytilsa, uning ta’sir kuchi nihoyatda ortar edi.¹

Tilshunoslikda vulgarizmlar deb ataluvchi haqorat soʻzlarida oʻta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq koʻrinib turgan boʻladi. Bunday soʻzlar koʻproq nominativ maʼnolariga koʻra emas, ayni shu konnotativ maʼnolariga koʻra nutqda yashaydi. Haqorat soʻzlari badiiy asarlarda, asosan, qahramonlar nutqda ishlatiladi. Lisoniy tahlil jarayonida badiiy asarga olib kirilgan vulgarizmlarni kimning (jinsi, ijtimoiy tabaqasi, mavqei, yoshi kabilar) nutqida ishlatilayotganligiga qarab guruhlash, qanday vaziyatlarda va nima sababdan qoʻllanilayotganligini hamda ularning leksik-semantik tarkibi, shevaga xoslanganligi kabilarni aniqlash lozim boʻladi. Misollar: - *Hey! Baqqa tush, **enagʻar!** Momo qo-oldi... Yuraging sovudimi, **haromi?** Endi yaylov keng boʻldi senga! Bogʻda javlon urasan, **silkasal!*** (Sh.Xolmirzaev) – **Ahmoq!** – dedi kampir. – *Qayoqlarda sanqib yurganding?* (S.Ahmad) – *Oʻbbo, bachchataloq...* (A.Qodiriy) *Gʻanimat gʻarniki, deydilar, - dedi Botir firqa* (T.Murod)² Soʻzlashuv nutqida ovoz chiqarmay koʻz, lab harakati bilan ifodalamoq uchun *jilmaymoq, kulimsiramoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq, iljaymoq* soʻzlari qoʻllaniladi. *Jilmaymoq* va *iljaymoq* soʻzlari uslubiy jihatdan neytral hisoblanadi. *Irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq* soʻzlarida salbiy maʼno kuchli bu salbiy ottenka *irjaymoq* soʻziga nisbatan *tirjaymoq* soʻzida, *tirjaymoq* soʻziga nisbatan *ishshaymoq* soʻzida kuchliroqdir: *Fosih afandi boʻlsa... qora duldul ustida kuydirgan kalladay **irjayib** oʻtirar edi* (M.Ismoiliy). *Murzin hayron qolib “u emasku!” degan edi.* *Komendant: “Adashmang, aynan oʻzi”, - dedi, surbetlarcha **ishshayib*** (Shuhrat). – *Yer yutgurlar, nima qilib **irshayib** turibsizlar, huv, koʻzlaring teshilsin! – dedi xotinlardan biri* (M.Osim).

Oʻzbek soʻzlashuv nutqi uslubida *naynov, boytevat, mechkay, soʻtak, qiztaloq, surbet, bachchagʻar, muttaham, xomkalla, oʻlimtik, iblis, tirrancha, ilon, juvonmarg, oqpadar, goʻrsoʻtxa, esipas, laʼnati, tirrancha, simyon, humpar, zumrasha, poʻk, anqov, lavang, shayton, gadoyvachcha, ammaning buzogʻi,*

¹Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. -Тошкент: Фан, 1983. –Б.33

²Ўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Фан, 2007. - Б.25.

so'xtasi sovuq, sovuq, gzingda kuygur, joning chiqqur, beti qursin, qurib ketgur, yer yutgur, vo'ling singur kabi vulgar so'z va iboralar ko'p qo'llaniladi.

Vulgarizmlar aslida nutqni nursizlantiruvchi, tinglovchi yoki o'quvchida salbiy munosabat uyg'otuvchi birliklar sanalsa – da, og'zaki va yozma nutqda ularning o'ziga xos o'rni mavjud. So'zlashuv nutqi bo'yicha kuzatishlar olib borgan professor B.O'rinboev mazkur uslubga xoslangan vulgarizmlarni ma'no ottenkasi va qo'llanish doirasiga ko'ra 3 guruhga bo'ladi:

a) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar: *dum, tekinxo'r, ayyor, buzuq, xomkalla, xumpar, qo'shmachi, noinsof, xotinfurush, mag'zava, yuzsiz, esipas, lanj, latta, ig'vogar, majmagil odam, mazasi yo'q, xotinboz* kabilar. Bunday so'z va iboralarda so'zlovchining tinglovchiga salbiy munosabati, ichki hayajoni, nafrati, jirkanishi kuchli ifodasini topgan. Masalan: *Shernazarboy buzuq odam chiqdi, u ko'rnamak. Meni sizdan ajratmoqchi u ablah* (J.Sharipov). *Bu ishga sen aralashma. Kampir mazasi yo'q ayol* (S.Ahmad). Keltirilgan misollarimizdagi *buzuq* so'zi axloqiy nosozlik, razil, chaqimchi ma'nosida; *mazasi yo'q* iborasi yaramas, fe'l-atvori bo'lmag'ur ma'nosidadir;

b) kishining tashqi kamchiligini ko'rsatuvchi vulgarizmlar: *mechkay, ko'ppak, maymoq, ilonbosh, simyog'och, qovoqbosh, ayronbosh, gumbaz, bordonday, qo'ng'iz, mo'ylov, kal, do'rdoq, qiyshiq, qo'tir, pataksoqol, paxmoq, surpaquloq, shikit, daroz, paytava quloq, so'loqmon, quti uchdi, bir oyog'i yerda bo'lsa, bir oyog'i go'rda* kabilar. Bunday vulgar so'z va iboralar biror predmet nomiga nisbat berish, yaqinlashtirish, o'xshatish natijasida paydo bo'ladi. Masalan: *Ro'zg'orni qo'lingga olib, bordonday semirib o'tirasanmi?* (Oybek). Shuni ham tushunmay o'tirasanmi, qovoqbosh (S.Ayniy). Voy. Manovi haligi o'zimizning qovoqbosh Fayzullaxonim-ku! Misollardagi *bordonday* so'zlari beso'naqay, semiz, yo'g'on odam ma'nosida: *qovoqbosh* so'zlari miyasi yo'q, aqlsiz, ahmoq ma'nosidadir;

v) so'kish, koyish ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar: *bachchag'ar,*

yaramas, ablah, xumpar, nomard, badbaxt, nonko‘r, gumroh, qistaloq, ahmoq, sintaloq, xotin-taloq, galvars, kasofat, naxs, ko‘ppak, la‘nati, tentak, iblis, shallaqi. Itvachcha, juvonimarg, isqirt, benomus, iflos, haromi, bedavo, go‘urso‘xta, vaysaqi; achimay o‘lgur, esi og‘moq (telbalanmoq), og‘zi katta (kibr-havola), nazari ilmaydi (mensimaslik) kabilar.

Bunday vulgar so‘z va iboralarga suhbatdoshlarning ichki hayajoni, ruhiy holati, g‘azabi kuchli ifodalangan bo‘ladi. Masalan: *Mast, ablah Tantiboyvachchaga yana qattiqroq gapirmaganiga afsuslandi* (Oybek). *Otabek o‘zini nechog‘lik bosib ushlab kelgan bo‘lsa ham, lekin ichidan qaynab toshib ketgan hissiyotini bosolmadi – Homidni “vijdonsiz to‘ng‘iz” dedi-da, ixtiyorsiz o‘rnidan turib ketdi* (A.Qodiriy). – *Axir, pushaymon qilibti-da, go‘urso‘xta, dedi Yo‘lchi hayratda yoqasini ushlab* (Oybek). *Mehmonning qizarganini payqagan keksa boy, o‘z xotinining katta og‘iz va betmizligiga achchiqlanib, yuzini teskari burdi* (Oybek).

Misollarimizdagi *ablah* so‘zi o‘taketgan *qabih, yaramas,razil* ma’nosida; *vijdonsiz* so‘zi *diyonatini yutgan, insofsiz* ma’nosida; *katta og‘iz* iborasi *kibr-havoli* ma’nosida; *gurso‘xta* so‘zi *go‘ringda kuygur* ma’nosidadir.

Boshqa bir guruh olimlar vulgarizmlarga g‘ayriaxloqiy so‘zlar sifatida qarab, quyidagi fikrlarni bildiradilar: “G‘ayriaxloqiy so‘zlar o‘z xarakteriga ko‘ra so‘kish, haqorat va qarg‘ish so‘zlariga bo‘linadi”. Shunga binoan biz tadqiqot ishimizda vulgarizmlarga g‘ayriaxloqiy yondoshgan holda boshqa bir guruh olimlarning fikriga qo‘shilgan tarzda qarg‘ish so‘zlarini ham vulgarizm so‘zlar sifatida oldik.

So‘kish, haqorat so‘zlarni semantik-uslubiy jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

a) axloq madaniyati (haromi, la‘nati, muttaham);

b) hayvon nomlari (it, eshak, cho‘chqa);

v) hasharot nomlari (chivin, chayon, g‘unda);

g) qush nomlari (boyo‘g‘li, qarg‘a, chittak) va hokazo bilan bog‘liq bo‘lgan “g‘azab-nafrat ifodalovchi so‘zlar”. Misol uchun Oybekning “Quyosh qoraymas”

romanida To'g'onbek salbiy obrazlardan biri hisoblanganligi uchun muallif personaj xarakteridagi odob-axloq me'yorlariga zid jihatlarini tasvirlashda bayon usulidan qochadi va personajni so'zlatish orqali o'z maqsadiga erishadi. Shu tariqa obrazning o'zini tanitishi kuchaya boradi. Ya'ni "shaxslar o'zlariga munosib til ila so'zlab, o'zlarining kimliklarini ravshanroq ang'lata oladilar". Ana shu vazifani bajarishda vulgarizmlar muhim vositadir. Quyidagi parchada To'g'onbekning o'z atrofidagi kishilarni mensimasligi, odam o'rnida ko'rmasligi aks etgan.

To'g'onbek iljayib: "Sovg'am o'zi yurib keladi!" – dedi–da, tashqari chiqdi. Otxona oldidagi hujra eshigida to'xtadi. - Ha, qayda sen, cho'loq qarg'a? – qichqirdi u Nurboboga (Oybek)

Asarda voqealar tobora keskin tus olib, personajlar o'rtasida ziddiyatlar kuchaya borgani sayin ularning nutqida vulgarizmlar shunga mos tarzda ko'p qo'llaniladi. Buni quyida – parcha misolida ham ko'rish mumkin: Boyqaro Mirzoning yigitimusen, yo shahzodalardan birining? –so'radi Tug'onbek to'nglik bilan.

- Navoiyning yigitimen.

- Ne deydi o'zi, - kichik ko'zlarini yigitga qadadi To'g'onbek. Keyin ayyorcha kulib davom etdi: - Yur, yaxshi yigit, Marvga boramiz. Shahzoda Abdulmuhsin Mirzoga buysunib, qiziq ishlar qilamiz. Baxting bo'lsa, ulug' kishi bo'lib ketarsen.

- Sen o'zing nima bo'lding? Podshohning buyrug'idan qo'rqib, sargardonga o'xshaysen. Xo'sh, Muzaffar Mirzo qo'llab – quvvatlamadimi?

Marvga borib, yaqinda bosilgan isyonni yana ko'tarmoqchimisən? Ax, badbaxt! –jirkanib dedi Arslonqul.

G'azabdan To'g'onbekning kichik ko'zi yonib ketdi. Arslonqul kumush dasta qamchi titradi.

- Mal'un, sen bu sahroda yirtqichlarga yem bo'lmoqchimisən! – dedi titragan ovoz bilan To'g'onbek.

- Ko'ramiz! – bahodirona qaddini rostlab, dadil gapirdi Arslonqul. –

Qilgan zulming uchun men hozir o'ch olaman!

- Qandog' zulm, gapir, it o'g'li! Qamchini ko'tardi To'g'onbek. – Kim bilan so'zlashasan? Haddingni bil, qulbachcha (O. 433-b)!

Asarda suhbat shu tarzda davom etadi. To'g'onbekning axloqsizligi, berahmliги vulgar so'zlar vositasida oydinlasha boradi.

Vulgarizmlar g'azab-nafratni ifodalash vosita sifatida badiiy asarlarda ko'p qo'llanilgan: Cholning qavog'i osilib ketgan edi:

- Bas, bas, haromi! Tilingni tiy, aljirama! – dedi qahrli bo'g'iq tovush bilan duqchi, Eshonxonni jerkib. – Zumrad asil qiz (O.).

Romandagi salbiy obrazlardan biri Eshonxon bilan bog'liq o'rinlarda vulgarizmlar ko'p uchraydi. Misol keltiramiz:

- A? – dedi Saidahmadxon yirik, to'nkaday og'ir, go'shtdor jussasini bir qo'zg'atib. – nima deb vildirayapsan, bachchag'ar, tushuntirib gapir (O.) yoki Saidahmad qiqirlab kuldi, keyin hazilnamo po'pisa qildi:

- Avvalo, mullajiring kerak, boshpana bir vatan kerak. Keyin qayliq orzu qilsang bo'ladi. Bo'ying bir qarich, buning ustiga abjag'ing chiqqan cho'tir bo'lsang, sen ta'viyaga kim boqadi, tentak (O.)

Badiiy asarda tilning asosiy xususiyatlaridan biri unda tasvirlash vositasining estetik vazifa bajarilishidir. Asosan personajlar nutqida, qisman muallif nutqida bir necha g'oyaviy-badiiy maqsadlarda tilning maxsus resurslari: neologizmlar, dialektizmlar, varvarizm, vulgarizm qo'llaniladi. Chunki davr ruhini aks ettirishda qahramonlar tilini individuallashtirishda, qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalashda, uning kasb-kori va ma'naviy darajasini ko'rsatishda bunday so'zlar qo'l keladi, asar tilini boyitib, badiiy tilning obrazli va emotsional bo'lishiga xizmat qiladi. Yozuvchi asardagi ayrim qahramonlarning madaniyatsiz, bemehr va dag'alligini, shafqatsizligini bo'rttirib ko'rsatish uchun ularning nutqida vulgarizmlardan foydalanadi:

—*Itidan bo'lgan qurbonlikka yaramas, bolalaringdan umidingni uzgan bo'lsang, itvachchalarini bu uyda qoldir!* (356-b)

Parazit so'zlar deb ataluvchi lug'aviy birliklar ham til madaniyati uchun

yotdir. Ular, asosan, soʻzlashuv nutqida koʻp ishlatib, notiqning oʻz nutqini kuzatib bormasligi, eʼtiborsizligi natijasida paydo boʻladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. A.Qodiriy “Mehrobdan chayon” romanida buxorolik Sharifboy nutqida “paʼlanat” (“padar laʼnat”)ni parazit soʻz sifatida ishlatib, uning nutqini individuallashtirgan.

Sharifboy har gapida bu soʻzni qoʻshib gapiradi:

—Sharifboy yostiqlardan burilib, yonidagi uchinchi yigitga qaradi:

- Paʼlanat, qachon kelgan ekan?

Xullas, umumtilda dagʻal, haqorat, qargʻish soʻz va iboralar ham mavjudligini koʻrib chiqdik. Ammo tilshunoslikda vulgarizmlar nomi bilan yuritiladigan bunday soʻz va iboralar jamiyatda barqarorlashgan maʼnaviy – axloqiy qoidalarga zid boʻlgani uchun ularni nutqqa kiritish nutqning sofliyini tamoman izdan chiqarishi bilan bir qatorda jamiyat aʼzolarining jamiyatiga ham daxl qiladi. Nutqda vulgar soʻzlarni ishlatish nutq tuzuvchining tarbiyalanganlik darajasi-ning tubanligini koʻrsatadi. Zotan, tarbiyalanganlikning mohiyati shaxsning jamiyatdagi mavjud ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy-siyosiy va maʼnaviy-axloqiy tartibotlarga soʻzsiz va muntazam hurmat bilan qarashi va demakki, qatʼiy amal qilishidan iboratdir. Ming yillik millik anʼalarimizda ham, maʼnaviy-maʼrifiy tarbiya davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylangan bugungi kunimizda ham soʻkinib gapirish insonga behurmatlik, nopisandlik, hatto bezorilik sifatida baholanadi.

Erkin Aʼzam asarlarida uslubiy maqsadda, qahramonlarning feʼl-atvori, saviyasini, ayni bir vaqtda, ruhiy holatini ochib berish uchun leksik vositalar sifatida voqelanadigan vulgarizmlardan mohirona foydalanadi. Dagʻal va haqorat soʻzlar yozuvchi asarlarida, asosan, qahramonlar, qisman esa muallif nutqida qoʻllangan. Ular qahramonlar tilidan keltirilgan boʻlib, dagʻallik darajasi, meʼyori ham saqlab qolingan. Yozuvchi asarlarida voqealar rivojiga uygʻun holatda dagʻallik va haqorat darajasi juda kuchli boʻlgan soʻzni ishlatish zarurati tugʻilsa, qahramonga bu soʻzni bevosita aytirmasdan, yozuvchi oʻz nutqi orqali tegishli maʼnoni tasviriyl yoʻl bilan quyidagicha umumlashtirib qoʻya qolgan: *Eshik ogʻzida*

qaqqaygan Gugushidze shalaqroq soʻkindi-da, choʻntagidan roʻmolcha chiqarib unga uzatdi ("Shovqin"). Boshqalarga esa jon kirdi - birovni taajjub bilan yelka qisdi: "Toje mne!", birovni oʻrischalab soʻkib xumordan chiqdi... ("Shovqin")

Haqorat, soʻkish maʼnolari yozuvchi asarlarida nafaqat soʻzlar, balki qahramonlarning turli qoʻl harakati orqali ham ifodalanganini kuzatish mumkin. Bunda yozuvchi maʼlum maʼnoni ifodalash uchun qahramonni soʻzlatmay, uning qoʻl harakati orqali tegishli maʼnoni bera olgan: - *Ajoyib yigit ekan-a, Farhodjon? Haqiqiy Pavel Korchagin! - dedı chol zavqqa toʻlib. - Zoʻr qilib yozasiz-da endi! - Mana yozadi! – dedim oʻzim ham kutilmagan xunuk bir qiliq koʻrsatib* ("Shovqin", 59-bet).

Vulgarizmlar badiiy asarlarda qoʻllanganda, qoʻpollik darajasining ifodalanishi ayollar va erkaklar nutqida farqlanadi. Vulgar soʻzlar tarkibida ijtimoiy sema yuzaga keladi. Ayollar nutqida qoʻpol soʻzlar qoʻllanganda nisbatan kuchsizroq boʻladi: - *Yoshi ham bor, "Diplomat"*.

-Xo-o, zoʻr-u! Hah, **pismi**q, yashirishini qarang!

- Yoʻq, sen oʻylagandaymas. "Diplomat" koʻtarib yuradi, xolos. Keys bor-ku, oʻshani. Koʻzini loʻq qilib, "Sevaman!" deydi. Oʻzi mendan besh yosh kichik! Shunisini aytsam, "Sizsiz yashayolmayman!" deydi **tirran**cha ("Zabarjad", 104-bet).

Vulgarizmlar erkaklar nutqida qoʻllanganda, qoʻpollik darajasi oʻta kuchli boʻladi hamda ijtimoiy semaning taʼsir darajasi yuqori boʻladi: ...*shunda Sayfiddinovning naqd joni chiqib ketar edi, tishlarini gʻichirlatib toʻngʻillardı u: "Manjalaqi! Turishini qarang!" ("Qiyofadosh", 254-bet); Darvozaxonada koʻringan Husan soliqchi ikki hatlab keladi-yu, xotinini bilagidan tortib chetga otadi:*

- *Bu yoqqa oʻt-e, enagʻar! Uzr, rais bobo. Qoʻl tegmaydi boqqa qaragani. Ish koʻp.*

- *Mayli, mayli, Husanboy, soligʻingni yigʻib boʻl-chi, roʻzgʻoringgayam vaqt toparsan, - deydi achitib Bolta Mardon* ("Suv yoqalab", 75-bet).

Keltirilgan misollar tahlilida ayollar nutqi paradigma qatoriga erkaklar nutqi

konsepti ham qo'shiladi. So'z semantik strukturasida xarakter bilan bog'liq psixolingvistik bo'yoq, shakllanadi.

Yozuvchining "Bayramdan boshqa kunlar" va "Guli-guli" qissalari qahramonlari nutqida kuchli salbiy ekspressiv mazmunni ifodalovchi vulgarizmlarni berishda haqorat ifodalovchi so'z ko'p nuqta bilan tushuniladi, bunda voqelik implitsit holatda anglashib turadi: *Avval boshlab kim kimni so'kdi, kim kimni mushtladi - esida yo'q; esida bori Vahshiyning dag'dag'asi: "Jo'na!... bormi senga bu yerda!"* ("Guli-guli", 228-bet); *Bir vaqt laylak misol hakkalab ichkaridan Maymun chiqib keldi. Kayfi chog'!*

- Guli-guli!

- He, **enangni!**... - deya dabdurustdan uni so'kib yuboribman ("Guli-guli", 229-bet); *Ajoyib domla miq etmay hamon ishshayib o'tirardi: yosh bola-da, har baloni aljirayveradi; gapir, gapiraver, sening gaping - mening...* ("Shoirning tuyi", 93).

Anglashiladiki, so'kish va haqorat uchun qo'llanadigan so'z yoki gap aynan keltirilmaydi, yozuvchi yoki so'zlovchi uni yo kontekst yoki nutqiy vaziyat orqali anglatadi. Natijada nasriy asarlarning poetik xususiyatlari lingvistik vositalar, hatto grafik shakllar bilan voqelantiriladi.

O'zbeklar nutqida salbiy munosabatlar "kuchli" yoki "kuchsiz" darajada ifodalanadi. "Kuchli" shaklda ifodalanuvchi so'zlarga haqorat va qarg'ish vulgarizmlari kiradi. Boshqa tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham qarg'ish bilan aloqador so'zlar (**yashshamagur**) bilan bir qatorda ko'plab "qolip" holiga tushib qolgan iboralar mavjud. Qarg'ish iboralar kishini salbiy jihatdan xarakterlaydi, ya'ni uni qo'llagan kishining salbiy xususiyatlarini (ko'ra olmaslik, yomon ko'rish, pisand qilmaslik hokazolar) shundoqqina ko'rsatib turadi. Qarg'ishga oid iboralarda turli kuchli emotsional-ekspressiv ma'no mazmunlari anglashiladi. Adibning "Piyoda" hikoyasi qahramoni Berdiboyning onasi tilidan aytilgan qarg'ish vulgarizmi orqali yomon istak mazmuni ifodalansa, "Bog'bololik Ko'kaldosh" hikoyasi qahramoni Ko'kaldoshning o'gay onasi nutqidagi qarg'ishlar o'lim tilash mazmunini ifodalaydi. Masalan: **Hah, sening kindikki-**

nangni kesgan kampirni kappaginasini kuysin! (“Piyoda”, 105-bet). Ushbu misolda yozuvchi fonetik vositalardan biri - alliteratsiya usulidan ham mohirona foydalangan. Qarg‘ish mazmunini ifodalovchi gapda “k”sirg‘aluvchi til undoshi so‘zlarning boshida takror holda qo‘llanib, alohida estetik ta’kid olgan hamda yozuvchi asarlarining lingvopoetik salmog‘ini yanada oshirishga xizmat qilgan.

- *Ko‘ka-al! - qichqirardi onasi. - Ko‘kingni kiyay, Ko‘kal! Bo‘ying go‘rda chirigur, Ko‘ka-al! Zotingga tortmay noming o‘chgur, Ko‘ka-al!* (“Bog‘bololik Ko‘kaldosh”, 190-bet).

Xullas, Erkin A‘zam asarlarida vulgarizmlar muhim uslubiy vosita sifatida namoyon bo‘lgan. Mazkur vosita nutqning emotsional-ekspressivligini kuchaytirish, qahramonlarning xarakteri hamda ma’naviy-axloqiy saviyasini namoyon qilish maqsadlarida qo‘llangan.

Co‘zlashuv nutqi bo‘yicha kuzatishlar olib borgan professor B.O‘rinboyev vulgarizm so‘zlar o‘z xarakteriga ko‘ra so‘kish, haqorat so‘plariga bo‘lgan edi. Lekin boshqa bir guruh olimlar vulgarizmlarga g‘ayriaxloqiy so‘zlar sifatida qarab, “g‘ayriaxloqiy so‘zlar o‘z xarakteriga ko‘ra so‘kish, haqorat va qarg‘ish so‘zlariga bo‘linishini” aytib o‘tgan edik. Manbalarga binoan biz ham tadqiqot ishimizda vulgarizmlarni g‘ayriaxloqiy so‘zlarga kiritgan holda qarg‘ish so‘zlarini vulgarizm so‘zlar sifatida yoritib berishni maqsad qildik.

Tilshunos S.Boymirzayeva o‘zining tadqiqot ishida vulgarizmga quyidagicha ta’rif beradi: “Tilshunoslikda vulgarizmlar deb ataluvchi haqorat so‘zlarida o‘ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat, qarg‘ish kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko‘rinib turgan bo‘lib, bunday so‘zlar ko‘proq nominativ ma’nolariga ko‘ra emas, ayni shu konnotativ ma’nolariga ko‘ra nutqda yashaydi”. Haqorat so‘zlarni badiiy adabiyotda ham uchratishimiz mumkin. Bunda vulgarizmlar uslubiy maqsadda, qahramon fe‘l-atvori, saviyasini, ayni bir vaqtdagi psixik holatini ochib berish uchun xizmat qiladi.

Nutqimizda qo‘llanadigan ba’zi haqorat so‘zlarni ma’nosi holida misoli bilan keltirib o‘tamiz:

Bachchataloq – taloq qilingan xotindan tugʻilgan bola: Oʻbbo, bachchataloq...(A.Qodiriy)

Bachchagʻar – nafrat, gʻazab bilan qattiq koyishni ifodalaydi: Muncha izgʻimasa, bachchagʻarning zerikmaganini

Dayus – qoʻshmach, dallol: Oʻx, dayus!... Bu pichoq necha gunohsizning yostigʻini quritgan ekan (A.Qodiriy).

Zangʻar – bachchagʻar, laʼnati. Gap bilan boʻlib, zangʻar kayf ham tarqab ketdi, qani quy-chi, bir-ikkini. (A.Qodiriy).

Onagʻar (enagʻar) – nafrat, gʻazab, qattiq koyishni ifodalaydi: - Hey! Baqqa tush, enagʻar!, Momo qoldi... Yuraging sovudimi, haromi? Endi yaylov keng boʻldi senga! Bogʻda javlon urasan, silkasal! (Sh.Xolmirzaev).

Oqpadar – otasi oq qilgan, laʼnatlangan, yuz oʻgiran.

Palid – oʻtaketgan yaramas, qabih, razil odam haqida: (Mirkomil) endilikda koʻrshapalakdek tunda izgʻib yurgan zararkunanda, palid!

Toʻymagur – baraka topgur, qurmagʻur tushkur kabi yengil koyish maʼnolarini bildiradi. U toʻymagur hech soʻzga kirmaydi.

Xonasallot – uying kuygur, badbaxt-mehnatkash, shoʻring qurgʻur, oʻlib tirilib qazigan ariq sub, xonasalot boylarning yeridan ortmasdi, - dedi Karimboy ota.

Yashshamagur – umring qisqa boʻlgur, oʻlgur (qargʻish soʻz).

Oʻlaksaxoʻr – ishlamay, boshqalar hisobiga yashaydigan; tekinxoʻr:

Sababi maʼlum, - dedi otam, - agar hashar tamom boʻlsa, bu ikki yuz oʻlaksaxoʻr tekin ovqatni qaerdan topishadi...

Hayvon – qoʻpol, madaniyatsiz, shavqatsiz, qabih kishi haqida: Kishi haqidan qoʻrqmaysanmi, hayvon! (Oybek)

Soʻtak – kelib-kelib oʻshandan panoh izladingmi, e soʻtak! (T.Malik).

Soʻkish, haqorat uchun qoʻllanadigan til vositalari baʼzan (maʼlum sharoitda) ochiq-parnografik holatda qoʻllanilsa-da, ular koʻp hollarda, xususan, yozma adabiyotda quyidagicha ifodalanadi:

Yomon, uyat, kurakda turmaydigan ogʻziga kelgan, ogʻziga olib

bo'lmaydigan so'z (yoki gaplar) bilan so'kdi, haqorat qildi (o'zlashtirma gap xarakterida): Muhayyoni ammam hech og'izga olib bo'lmaydigan gaplar bilan haqorat qildilar. (A.Q.) Salom-alik, hol-ahvol so'rash yo'q, og'ziga kelgan haqorat so'zlar bilan hammaning ota-onasi qolmay, astar-paxtasini ag'darib so'kingan holda maxorka o'rashni boshladi. (Shukrullo) O'zi seni u qildim, bu qildim deb so'kdi (Ch.)

Haqorat ob'ekti tilga olinib, haqorat ifodalovchi so'z ko'p nuqta bilan tushuniladi, voqelik inplitsip holatda anglashilib turadi: Lo'lilar o'tganki, student bormi, etagidan tortib folingni ko'ray deb yopishib olishardi, indamay o'tib ketadiganlarni orqasidan ha, galstugginga.... Ha, paparatka sochingga... deb so'kishardi. (S.Ahmad.)

- Balig'imni ber... – Bor, bor baliqni o'z yerimdan tutib oldim. – Ber deyapman! - Baliq topshirib qo'yganing yo'q, ol qo'lingni! – Qiyzingni... – Sani onangni... (N.A.Qitig'i o'lmagan qiz. 80).

Yuqoridagilardan anglashiladiki, so'kish va haqorat uchun qo'llaniladigan so'z yoki gap aynan keltirilmaydi, yozuvchi yoki so'zlovchi uni yo konteks, nutqiy vaziyat orqali anglatadi yoki uni boshqa-yumshoq iboralarga aylantirib beradi.

Shuni aytib o'tish joizki, biz o'zbeklar nutqida salbiy munosabatlar “kuchli” yoki “kuchsiz” darajada ifodalanadi. “Kuchli” formada haqorat so'zlar, qarg'ishlar ifodlansa, “kuchsiz” formada o'sha salbiy munosabat ifodalovchi so'z hayo bilan, yumshoqroq aytiladi. Bu holat bizning mentalitetimiz bilan bog'lanadi.

Nutqimizda narsa-hodisaning mohiyatiga tushunish qobiliyati yo'q, fahm-farosati yo'q; fahm-farosat bilan ish qilmaydigan kishilarga nisbatan befahm, fahmsiz, befarosat, farosatsiz, betamiz, haftafahm so'zlari keng qo'llanadi. Masalan: *O'qigan ko'rinadi-ku, uqmagan ko'rinadi. Did emish, senda did nima qiladi, befarosat! Haftafahm bir odam kelib, o'rinbosarim huzurida pora berib ketdi.*

Xuddi shunday salbiy ekspressivlikni ifodalovchi so'zlar sirasig'a

bo'lmag'ur, be'ma'ni, nomaqul, nojo'ya, nobop, nodurust, tuban, jirkanch, rasvo, yaramas, razil, qabih, chirkin so'zlarini ham kiritishimiz mumkin.

Barchasining ma'nosi "odob-qoidaga xilof, odob-doirasiga sig'maydigan" degan ma'noni ifodalaydi. Misol: *Hozir uning nazarida olamda eng past va razil ko'ringan Mirzakarimboy bilan pul yuzasidan xiralashishni, yoqa bo'g'ishishni o'ziga or bildi* (Oybek).

Vijdonsiz leksemasi vijdonan, insof bilan ish tutmaydigan, vijdoni yo'q kishilarga nisbatan badiiy asarda qo'llanadi. Sinonimlari –nomussiz, benomus, noinsof, insofsiz, mutaham. Qutidor qizining maqsadiga tushunib, ikki turli qo'lni darrov payqab oldi, "Vijdonsiz, iblis", -deb qo'ydi. (A.Qodiriy)

Yolg'on gapiruvchi odam – yolg'onchiga nisbatan bizda doimo salbiy bir munosabat bo'lgan. Uning aldamchi, aldoqchi, kazzob eskirgan, kitobiy so'z sanaladi. *Aldoqchi va yolg'onchiga nisbatan aldamchi kamroq qo'llanadi. Bari yolg'on! U uying kuygur yolg'onni chin qiladigan kazzob la'in ekanda.* (Oybek)

Qarg'ish so'zlari boshqa tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham qarg'ish bilan aloqador so'zlar (yashshamagur) bilan bir qatorda ko'plab —shtamp holiga tushib qolgan iboralar mavjud. Avvalo shuni qayd etish lozimki, qarg'ish iboralar kishining salbiy jihatdan xarakterlaydi., ya'ni uni qo'llagan kishining salbiy xususiyatlarini (ko'ra olmaslik, yomon ko'rish, pisand qilmaslik va hokazolar) shundoqqina ko'rsati turadi.

To'plangan materiallar tahlilidan kelib chiqib, qarg'ishga oid iboralarni anglatgan ma'nolari jihatidan quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganishni lozim, deb topdik:

- 1.O'lim tilash mazmunini ifodalovchi
- 2.G'azab-nafrat mazmunini ifodalovchi
- 3.Yomon istak (tilak) mazmunini ifodalovchi
- 4.Shaxsga nisbatan nafrat va baxtsizlik ifodalovchi
- 5.Og'ir qarg'ish mazmunini ifodalovchi
- 6.Duoyi bad qilish ifodalovchi

7.Yengil qarg'ish mazmunini ifodalovchi

1.O'lim tilash mazmunini ifodalovchi iboralar: ajlga yo'liqqur, onang (bolang)o'lsin, bo'y(gina)ng go'rda chirigur, bo'yning uzilgur, go'rga kirsin, yer yetgur (yutgur), juvonmarg (juvonmag) bo'lgur, iloho (iloyo) ko'zlaringa tuproq to'lsin, yigit(gina) o'lgur, yashshamagur, qaro yer bo'lgur, qarchining qiyingur, haromi o'lgur (qotgur) kabilar. Masalan:

- Nima bo'ldi o'zi, ovsinjon?

- Kecha meni shundoq so'kdi, shundoq so'kdi, yigitgina o'lgur! Onamni so'kdi-ya, bo'yginang go'rda chirigur.

- Qo'ying, xafa bo'lmang!

-Nimaga xafa bo'lmas ekanman!... (O'.H.)

Yoki:

- Eringiz qochib ketibdi!

- Qayoqqa qochibdi?

- "Vatanimga qaytmayman" deb Fransiya ma'murlaridan boshpana so'rabdi.

- Voy, juvonmarg bo'lgur! Yomonning bir qilig'i ortiq deb... (Shuhrat)

2.O'zbek tilida g'azab-nafrat mazmunini ifodalovchi: afting (basharang, beting, diydoring, turqing) qursin, aftingni, basharangni, turqingni, tusingni yel yopgur, kuydirgan kalladay ishshaymay (o'l), ko'zimdan yo'qol, nafasingga tilingga, ko'ngillarigga kuydirgi chiqqur (chiqsin), nafasing og'zingdan chiqib ko'ksingga yopishgur, padari (ng) ga la'nat, qurib, qaqshabgina ketgur (lar) kabi. Masalan:

- E, oting o'chsin, Parcha! Ichingda it o'lganmi, nima balo?

- Moxora yegandan keyin shunaqa bo'ladi-de, opa!

- E, moxora yemay nafsingga kuydirgi chiqsin! (O'.H.)

- Qaysi suv?

- Qaysi bo'lardi? O'sha, o'zing aytib yurgan Hazrat Ukkosha qabri yonida topilgan issiq suvga-da

- Nechuk juda yorlaqadi! Bog'ingizni tashlab-a?

- Padariga la'nat hammasini!.... (Yo.O.)
- Nasim oshna, u nima dedi? !, uyalib indamadimi?
- Bo'ri, men gaplaringni oqizmay-tomizmay aytdim. Bo'ri oshnamga sensiz kunduz qorong'i, dedim.
- O'h, beti qursin, deb qo'l sitadi, jo'ra... (T.Murod.)

Xarakterisi shundaki, mazkur mikroguruhga mansub iborada ham, matnga qarab, ko'p ma'nolilik kasb etishi mumkin. Masalan, ko'zimdan yo'qol, olma yemay zahar yegur, og'zingdan qoning kelgur, padaringga la'nat kabi frazeologizmlar so'kish, havorat mazmunlarini ham ifodalash bilan birga ularning ayrimlari yomon istak mazmunini ham ro'yobga chiqarishi mumkin.

3. Ona tilimizda yomon istak (tilak) mazmunini ifodalovchi iboralar qo'llanishidan ko'z yuma olmaymiz: Boshingda ordona qolsin, baloga yo'liqqur, jabbor chalsin, iloxo tezroq vayron bo'lgur, matohing boshingda qolsin, noming o'chgur, umring avaxtada chirisin, xudodan topgur, xudoning qahriga uchragur, xudo umringdan baraka olsin, qirg'in kelgur, ado bo'lgur va boshqalar:

- Qani?
- Xat menga emas Dildorga.
- Voy, ado bo'lsin. Qirg'inkelgur kennoyisi jigardan ham aziz bo'pti-da.
- Shoshma, shoshma, gap tagida gap bor... (S.Ahmad)

4. Shaxsga nisbatan nafrat va baxtsizlik istash mazmunini ifodalovchi iboralar: basir bo'lgur, bolalarning ko'z yoshlarini ko'r qilgur, go'dakning tirnog'iga zor bo'lgur, iloyo tiling kesilsin, ko'zginang teshilib oqqur, tuzim ko'r qilgur kabilar kiritish mumkin. Masalan:

- Qachon? Nima dedim?
 - Folbinnikida, go'rso'xta, folbinnikida! Nega sekilli xolamni ko'rdim, dedim?
 - Nima qilay? Ko'zimga ko'ringanini aytdim – da!
 - Mana – ku, ko'zginang teshilgur, mana –ku! (O'.H.)
5. Og'ir qarg'ish mazmunini ifodalovchi iboralarga go'ringda tik turgur,

go‘ringdan tutun chiqqur, go‘ringda to‘ng‘iz qopgur, ovozing go‘r tagidan kelgur kabilarni kiritish mumkin:

- Sen qildingmi?
- Yo‘q...
- Yigitlaringmi? Qasos opsan-da?..
- Yo‘q, ota... Baribir shunday bo‘lardi...
- Elni xarob qildi, go‘ringda to‘ng‘iz qopgurlar! (Q.Q. Sel. 213)

6. Tilimizdagi duoyi bad qilish mazmunini ifodalovchi oq qildim, oqpadarsan, sendek farzandim yo‘q; u dunyoyi bu dunyo kosang oqarmasin; bunday yetti nomusni yerga bo‘kkan farzanddan kechdim kabi iboralar mavjud. Masalan:

- Oq qildim, bunday yetti nomusni yerga bo‘kkan qizdan kechdim.
- Qo‘ying, qaerda bo‘lsa ham sog‘ bo‘lsin.
- Xudoyo Ibay juvonmarg bo‘lsin, qirqqa barbay qirchinidan qirqilsin.(G‘.G‘.)

7.Yengil qarg‘ish mazmuni ifodalovchi iboralar jumlasiga tilinga tirsak chiqqur, gapingiz qursin, esim qursin kabilar kiradi. Masalan:

- Karim boboning bog‘iga.
- Nima bor ekan rahmatlikning bog‘ida.
- Olma o‘g‘irlikka ketayotuvdik.
- Ho-oy, tilinga tirsak chiqqur, o‘g‘irlik dedi-a... (Sh.B.)

M.Bazarova tadqiqot ishida – gur affiksini xarakterliki jihatlarini ochib beradi. - gur affiksli sifatdash qatnashgan birikma o‘zbek tilida asosan katta yoshdagi shaxslar tomonidan qo‘llanadi. Ularga baraka topgur (umringdan baraka topgur), bolang ko‘paygur, boy bo‘lgur, uyingga bug‘doy to‘lgur, olgan bo‘lgur, umring uzoq bo‘lgur, boshing toshdan bo‘lgur, bo‘ying cho‘zilgur birliklarini misol sifatida keltirish mumkin. Shuningdek, qarg‘ishni ifodalovchi – gur affiksli birliklarni bo‘lishsiz shaklida qo‘llash ayollar nutqi uchun xosdir: basharang qurmagur, qurib ketmagur kabi.

—Juvonmarg! – dedi singlisining emas, o‘zining sochini yulib

/Fotima kelin/. – Iloyo kosang oqarmasin. Sendek singlim yo‘q, bildingmi?
Otamning arvohiga soldim, benomus! Iloyo bu kuningdan battar bo‘l,
sharmanda.

Boyadan beri ayvon o‘rtasida cho‘zilib yotgan Xolposh xola yart etib
ko‘zini ochdi.

- Dod – dedi to‘lg‘anib, - Zokir! Bolam!

Ensasi qotib, churq etmasdan o‘tirgan Zumrad chidamadi, asabiy titroq
tovushda opasiga dedi:

- Kundoshlar bilan it-mushuk bo‘lib yurar ekanman-da! Qani tag‘in bir
kelsinchi... juvonmarg bo‘lgur Eshonxon... Yer yutkur yugurdakni itday bir
talab beray, mushukday qochsin (Oybek.)

Ayniqsa, qarg‘ish so‘zlarni ayollarni nutqida qo‘p qo‘llanadi

2.3. Dialektizmlar

Ma’lumki, “dialektizmlar - bayon etish uslubi sifatida badiiy adabiyot tilida
foydalaniladigan dialektik so‘zlar”¹ dir. Ular badiiy asar tilining boy, jozibador va
ta’sirchan bo‘lishida muhim o‘rin egallovchi vositalardan biri o‘laroq deyarli
barcha asarlarda voqelanadi.

Milliy tilning turli dialekt va shevalariga tegishli bo‘lgan original so‘zlar
faqat dialektolog va tilshunos olimlar ilmiy tadqiqot ishlarining mavzui bo‘lib
qolmay, balki muhim badiiy-tasviriy vosita sifatida so‘z san’atkorlari –
yozuvchilar, shoirlar va boshqalarning ham diqqatini o‘ziga jalb etadi. Dialektal
so‘zlarning o‘ziga xos emotsional-ekspressiv va estetik vosita sifatida badiiy
tekstda ma’lum darajada qo‘llanishi qonuniy hodisadir. SHunga ko‘ra, bunday
dialektal so‘zlarning semantik-stilistik xususiyatlarini badiiy asarlar tili materiali
asosida o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi ².

E.A’zam, avvalo, xalq yozuvchisi, millatiga jonkuyar ijodkor sifatida
xalqning ma’naviy mulkidan foydalanmasligi, u suv ichgan buloqlardan

¹Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М., 1966.- С. 607.

²Дониёров А. Шева унсурларининг бадий асарларда қўлланиши//Ўзбек тили ва адабиёти.-1990.- № 6.- Б.35

bahramand bo‘lmasligi mumkin emas. Hozirgi kunda mavjud dialektlar uch lahjaga: qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga bo‘lib o‘rganiladi. Bu lahjalarning har biri o‘ziga xos xususiyatlariga – fonetik, morfologik va leksik jihatdan farqlanadigan qator lingvistik belgilariga ega. Ushbu lingvistik xususiyatlariga ko‘ra yozuvchi asarlarida keltirilgan dialektizmlarni tadqiqotimizda quyidagi guruhlariga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

1. Fonetik dialektizmlar
2. Morfologik dialektizmlar
3. Leksik dialektizmlar

E.A’zam asarlarida, asosan, tayanch shevalardan biri – Toshkent shevasiga xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlar obrazlilikni ta’minlab, badiiy asarning jozibadorligi va ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Erkin A’zam asarlarida fonetik va morfologik dialektizmlar qatorida leksik-semantik dialektizmlar muhim o‘rinni egallaydi. M.Yo‘ldoshyev leksik dialektizmlarni uch guruhga bo‘lib o‘rganadi: 1) sof leksik dialektizmlar 2) etnografik dialektizmlar 3) semantik dialektizmlar¹. Erkin A’zam asarlarida ham dialektizmlarning har uch turidan mohirona foydalanilgan.

1. Sof leksik dialektizmlar adabiy tilda ma’nodoshi mavjud bo‘lgan so‘zlar hisoblanadi. Bunday dialektizmlar tasvirda mahalliy ruhni yorqin tasavvur qilishga xizmat qiladi. Masalan, **shoti** (*narvon*), **bo‘yinsa** (*tengqur*), **el-xesh** (*qarindosh*), **to‘lg‘amoq** (*chayqamoq, silkimoq, tebratmoq*), **itqitmoq** (*irg‘itmoq*) kabi bir qator so‘zlar ana shu maqsadda qo‘llangan: *Fayzullaevich, egnida banoras to‘n, qo‘lida tokqaychi, ishqomga shoti qo‘yib, havasakka xomtok bilan mashg‘ul edi.* (“Javob”); *Axir, o‘shanda gap mening oilaviy hayotim ustida bormoqda edi, sendan – o‘z bo‘yinsa – birodarimdan boshqacha, mardona bir so‘zni kutgan edim.* (“Javob”); *“Endi –i bunday qilib yurmang, bo‘la, har zamon-har zamonda qishloqqa borib turish kerak: tug‘ilgan joyingiz, el-xesh, qarindosh-urug‘ deganday...”* (“Ostona”, 153); *Darhol tanib oliftanamo qo‘l to‘lg‘adi.* (“Shovqin”);

¹Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Т., 2000, - Б.14.

- Tuzuk tortilmaydiyam, - dedim qo‘limdagi sigaretni achchiq bilan mashina oynasidan **itqitib**. (“Manzuma otin”).

Erkin A‘zam dialektizmlarni asarga olib kirishda ko‘pincha, hech qanday tushuntirishsiz, biror belgisiz nutq ichiga kiritib yuboradi, ayrim o‘rinda esa dialektal so‘zning ma‘nosini qavs ichida izohlab beradi: **“Bo‘la?! Bo‘lam?!..”** (Bizning yurtlarda amakivachcha, xolavachchayu uzoqroq qarindoshlarning bolalarini ham shunday – bo‘la deyishadi.) (“Ostona”)

2. Etnografik dialektizmlar. Boshqa xalqlar dialektida kuzatilmaydigan, faqatgina ma‘lum bir sheva tarqalgan hududda yashovchi kishilarning o‘zlariga xos bo‘lgan urf-odatlarining nomlarini ifodalab keluvchi so‘zlardir. Mazkur dialektizmlar yozuvchi asarlarida mahalliy-milliy urf-odatlar, voqea-hodisalarni tasvirlashda muhim vositalardan biri sifatida yuzaga keladi. Bunday so‘zlar tasvir realligini ta‘minlaydi va matnga alohida mahalliy rang beradi. Biroq E.A‘zam asarlarida bunday vositalar kam qo‘llangan. Masalan, quyidagi gaplarda **“beshikkerti”** (Bolalarni beshikdaligidayoq unashtirib qo‘yishodati), **“nomgo‘y”** (urf-odatlarga ko‘ra, yoshligida nomi aytilib unashtirib qo‘yilgan yigit yoki qiz) va **“murdasho‘y”** (g‘assol, yuvg‘uchi) kabi etnik dialektizmlarni uchratishimiz mumkin: *Lekin bolalikda “beshik kerti” qilinganiga qaramay, amma unga qizini bermadi.* (“Stupka”); *U bolalikdan bir xeshlarining qiziga “nomgo‘y”, qiz ham sochini tarab uni kutib o‘tirgan edi.* (“Javob”); *Og‘ilni murdasho‘ying kuraydimi, juvonmarg!* (“Bog‘bololik Ko‘kaldosh”). Yuqoridagi vulgar xarakteridagi **murdasho‘y** etnografik dialektini Ko‘kaldoshning o‘gay onasi nutqi orqali berishda yozuvchi asarda kuchli emotsional-ekspressivlikni maqsad qilib qo‘ygan, ya‘ni o‘gay ona o‘gay farzandga nima tilaydi: o‘lim! Alal-oqibat esa birgina murda yuvuvchi – poklovchiga yumush qoladi. Adib ona tilidan qarg‘amaydi, aslida esa “qaro er bo‘lgur”, “ergina yutgur” kabi qarg‘ishlarni ham personaj nutqida keltirishi mumkin edi. Biroq g‘azabni ham, jahlni ham, ichki tug‘yonlarni ham birgina “murdasho‘y” so‘zi semantik strukturasiga yuklay olgan yozuvchining mahoratini ana shunda ko‘rish mumkin. Nasriy asar poetikasi kitobxon kutmagan lingvistik vositalar orqali ifodalanadi. Yozuvchi bunda etnografik leksik birlik

tarkibidagi valentlikning semantik kataklarini semasiologik variant elementlari bilan to'ldiradi. Matnda lingvistik birlikning ma'no qatorlari etnolingvistik bo'yoq bilan to'yintiriladi. Natijada lingvopoetik belgilar kitobxon tasavvurida shakllana boshlaydi.

3. Semantik dialektizmlar. Bu xil dialektal so'zlar adabiy tildagi so'zlarga shakldosh bo'lib keladi. Yozilishi va talaffuzi bir xil bo'lgan ayni bir so'z adabiy tilda ham, shevada ham bo'lishi mumkin. Lekin ular adabiy tilda va shevada boshqa-boshqa ma'noda qo'llanadi. Bunday so'z badiiy asarda semantik dialektizmlarni hosil qiladi. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"¹da **enmoq** so'zi quyidagi ma'nolarni ifodalab keladi: **enmoq** – past, quyi tomon yo'nalmoq, tushmoq; **enmoq** – tegmoq, qo'nmoq, o'tirmoq; **enmoq** – paydo bo'lmoq, kirmoq; *Kechki payt jilovni salqi qo'ygancha, archazor oralab **enib** kelyapman.* ("Shovqin"), - *Anovi tog'ni teshib, Durdaraning suvi shunday bir **endirib** yuborilsa – olam guliston edi-ya!* ("Suv yoqalab"), *YOzuvchini kuzatib qaytgan Farhod nimqorong'i zinapoya bo'ylab bazmxonaga **enarkan**, yaltir-yultirbar peshtaxtasi oldida... Gulyaga ko'zi tushdi.* ("Shovqin") Mazkur so'z birinchi va ikkinchi gapda *past (quyi) tomonyo'nalmoq* ma'nosida, uchinchi gapda *kirmoq* ma'nosida kelgan. Semantik va leksik variantni ajratish yoki farqlash tufayli nozik ma'no ottenkasi asarning badiiylik darajasini oshiradi. Dialektal leksik birlik semantik qatoridan nutqdagi semantik birlik variantlarini qo'llash asarning ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Quyida Erkin A'zam asarlarida qo'llangan leksik-semantik dialektizmlar izohini berishda "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi tahlilga asoslanildi. **Narvon** (shoti) **xesh** (qarindosh), **so'g'in** (so'ng, keyin, so'ngra), **tuyur** (bo'lak, burda), **dapqir** (tez, vaqt o'tkazmay), **ishkom**, **jom** (tog'ora), **ena**(ona, oyi), **so'g'ra** (so'ngra), **bacha** (bola), **shuytib** (shunday qilib), **buytib** (bunday qilib), **bo'lavachcha** (xolvachcha), **haymi** (xo'pmi), **qashshang** (uyati yo'q, surbet), **sochqi** (chochqi), **jelak** (nimcha, engsiz yupqa kiyim), **bibi** (onaning yoki otaning

¹Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 5-жилд. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", Т.: 2006. –Б.592 .

onasi, buvi), **yo'g'asam** (bo'lmasam), **ho'qqi** (bukri), **o'rlik** (o'jarlik), **satil** (chelak, paqir), **havasak** (havasga), **duvva** (birdan, baravariga), **ada** (dada), **bopta** (bop, mos), **doda** (dada), **tuyqusdan** (birdan), **eltib** (olib borib), **xarrak** (o'rindiq, skameyka), **kat** (karavot), **enmoq** (kirmoq, qaramoq), **to'lg'amoq** (chayqamoq, silkimoq, tebratmoq), **kepata** (ayanch, achinarli), **ulgi** (o'rnak, namuna), **enag'ar** (onag'ar), **yazna** (pochcha), **ibi** (ie), **hadaha** (tezdan), **namxush** (bir oz namli), **itqitmoq** (irg'itmoq), **checha** (kelinoyi).

Demak, yozuvchi asarlarida qo'llangan shevaga xos so'zlar va ularning leksik-semantik xususiyatlarini o'rganish hozirgi o'zbek adabiy tilini boyitish, mukammallashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Chunki bu so'zlarning ko'pchiligi tilimizning uzoq o'tmishini, xalqimizning turmushi, madaniyati, urf-odati va shu kabilarni o'zida yorqin aks ettiradi. Biroq o'zbek adabiy tilining hozirgi rivojida dialektal so'zlar hisobiga boyib borish hal qiluvchi mutlaq ahamiyatga ega bo'lmasa-da, badiiy asarda xalqona usulda oddiy xalq tiliga yaqin so'z va iboralar shaklida ifodalash asarning badiiy estetik qimmatini va badiiy tasvir jozibasini yanada oshirishga xizmat qiladi. Demak, dialektizmlarni badiiy asar matni bo'yicha o'rganish ham badiiy til leksikasini o'rganishning muhim tomonlaridan biri hisoblanar ekan. Erkin A'zam asarlarida dialektal so'zlar o'ziga xos emotsional-ekspressiv va estetik vosita sifatida qo'llanib, mazkur usulning semantik-stilistik xususiyatlarini yozuvchi asarlari tili materiali asosida o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

2.4. Badiiy matnda argo va jargonlar

Jargon (fr. *jargon* - lahja)¹ ham qo'llanishi chegaralangan leksika tarkibiga kiradi Kasbi, jamiyatdagi o'rni, qiziqishi, yoshiga ko'ra alohida sotsial guruhni tashkil etgan kishilarning, asosan, og'zaki nutqda ishlatiladigan lekin ma'nosini boshqalar ko'p hollarda anglab yetmaydigan birliklar jargon deyiladi . Masalan: programmistlar jargoni, talabalar jargoni, o'g'rilar jargoni , mahbuslar

¹Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullayeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: 2009.-B.267.

jargon va h .

Talabalar jargoni yopmoq (sessiyani tugatmoq), vozdux (stipendiya), yaxlamoq (imtihondan qaytmoq), chizmoq (qochmoq), quloq (chaqimchi); yoshlar jargoni g'isht (xunuk), sindirmoq (lol qoldirmoq), krutoy (ketvorgan) risovka (ko'z-ko'z qilmoq) uxlatmoq (aldamoq), strezka (uchrashuv) tashlashmoq (tortishmoq), baks (dollar), muzlatmoq (harakatdan to'xtatmoq); harbiy hizmatchilar jargon dux (yangi kelgan askar), salyaga (bir ikki oy xizmat qilgan askar), fazan (xizmatning yarmini o'tagan askar), ded (xizmatdan qaytishi yaqinlashgan askar), diskoteka (oshxona naryadi).

Argotizm ham asli jargonizmning bir ko'rinishi bo'lib, tarbiyasi buzuvchi, qo'li egri shaxslar orasida shu guruhning o'ziga-gina tushunarli ma'noda ishlatiladigan leksemalar yig'indisidan iborat (fr. *argot* – 'lahja').¹ Masalan, *loy* ("pul" ma'nosida), *xit* ("xavf" ma'nosida) kabi.

Tilning ijtimoiy-dialektal qatlamiga mansub so'zlar badiiy adabiyotda voqelikni ishonarli chiqishi uchun personajlar nutqini individuallashtirish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'tmishda yuqori tabaqa kishilari o'z niyatlarini oddiy xalqdan yashirish maqsadida jargonlardan foydalanar edilar. Husni mutlaq (xudo), ne'mati jannat (mahbuba, yor), olampanoh (podsho), farmoni oliy shon (podsho farmoni), arkoni davlat (podsho, amir), tavaqqush aylan (umid bilan kuting), shoe qiling (bildiring), rijo va tamanno etaman (shunday qilishni so'rayman), tanzin deng (foyda deng) singari so'z va iboralar jargonlarga misol bo'la oladi.

Sayoq sozandalar, o'g'rilar, bezorilarning yashirin so'zlari argolar deb yuritiladi. Bunday so'zlar keng xalq ommasi uchun tushunarli bo'lmaydi. Masalan, otarchilar argosiga otar (to'y), otarkas (to'y egasi), ocharchi (to'yni olib boruvchi), danap (o'yinchi xotin), yakan (pul), so'kichak (otarchilarni to'yga olib boruvchi mashina), so'kichakchi (shofyor), noyi, udak (to'yni to'xtatish) kabilarni; o'g'rilar, bezorilar argosiga deg'o (begona), harif (dushman), shabas (menga berib yubor), bedana (to'pponcha), loy (pul), ligavi (militsiya), zamri (jim tur), atanda (qoch)

¹Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Talqin. 2005.-B.268.

singarilarni misol qilib keltirish mumkin.

Jargon soʻzlarni qoʻllovchi kishilar guruhi turli-tuman boʻlgani uchun, jargon soʻzlar ham kelib chiqish xarakteriga koʻra turli-tuman boʻladi.

Jargonlarning koʻpchiligi oʻtkinchi, vaqtincha boʻlib, ular davr, sharoit oʻzgarishi bilan tez oʻzgaradi. Baʼzan jargonlar oddiy soʻzlashuvga oʻtib, undan adabiy tilga oʻtib ketishi ham mumkin.

Umumjargonlarga xos xususiyatlar quyidagicha:

1.Jargonlar adabiy tilda nomi boʻlgan narsa va hodisalarning boshqacha, juda tor guruhdagi atamasidir.

2.Jargonlar har doim ekspressiv-stilistik boʻyoqqa ega boʻladi.

Koʻpchilik jargonlar oʻtkinchi, vaqtincha boʻlib, keyinroq, asta-sekin yo butunlay unutilib ketadi yoki emotsional-stilistik boʻyogʻi tufayli oddiyy soʻzlashuvga, undan umumqoʻllanishga, yaʼni chegaralanmagan leksikaga oʻtishi mumkin. Jargonlarni qoʻllovchi jamoalar turlicha uyushadilar.

1.Qiziqishlariga, oʻrganib qolgan odatlariga qarab birlashgan guruhlariga xos jargonlar: ichuvchilar (*novcha*-aroq, *qizil-vino*) kabi; *bezorilar* (shuher-koch, atanda – xavf-hatar) kabi.

2.Yoshlariga, jinslariga koʻra birlashgan guruhlariga xos jargonlar. Yosh bolalar oʻyinida: *zamri*, *umri*, *atamri*, *voskresni* kabi: oʻsmir va yosh bolalar tilidagi boshqalardan yashirincha soʻz boʻgʻinlariga boshqa tovush qoʻshib, talaffuz qilish: *chbochrachsanchmi*-borasanmi, *bozaramazaman*-boraman kabi.

3.Mashgʻulotlariga koʻra birlashgan guruhlariga xos jargonlar: talabalar nutqida: *obshyaga*-yotoqxona.

4.Maʼlum kasb-hunar kishilari nutqida ham jargonlar uchraydi. Masalan, tikuvchilar nutqida: *sim-simi toʻgʻri kelsin*-ikki tomondagi chok va gullarning bir xil kelishi; haydovchilar nutqida: *qizilshapka*, *togʻamning oʻgʻli* –militsioner.

Bundan tashqari, badiiy asarlarda ikki tipdagi jargonlar uchraydi.

I.Tarixiy jargonlar.

a)tarixiy asarlarda davr ifodasi sifatida va b) tarixiy mavzudagi asarlarda davr ruhini berish, qahramonlar nutqini individuallashtirish uchun sinfiy jargonlar

qo`llaniladi.

II. Zamonaviy jargonlar.

Zamonaviy asarlarda esa hozirgi tilimizdagi kichik ijtimoiy guruhlarga oid so`zlar qahramonlar xarakteri, saviyasini ko`rsatish uchun qo`llaniladi.

Tarixiy asarlardagi jargonlar:

Toshkent yurishida..., chun fano selobiga g`arq bo`ldi (A.Navoiy).

Pahlavon Husayn

Qorabog`da maqtul bo`ldi. (A.Navoiy).

Bu fursatlarda xabar keldikim, tangri rahmatiga boribdir (Bobur).

Misollardagi *chun fano selobiga g`arq bo`ldi*-sel toshqiniga botib o`ldi, *maqtul bo`ldi*-o`ldirildi, *tangri rahmatiga boribdir*-o`ldi degan ma`nolarni bildiradi.

Tarixiy shaxslar tilini individuallash, tarixiy davr ruhini berish uchun tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda sinfiy jargonlar ko`plab qo`llaniladi:

Hayrilmuri avastuqo, Nigor, ishda etildol yaxshi.

Hadisning hukmi, Nigor!-dedi Mahdum- Bundagu umur – umurid dunyo: inchinin hadisning amaliyoti oxirat uchun ham hukmi joriydir... Binobarin, bu hadisi Sharif ro`zg`orat borasida dastur tutilsa, yana ayni hikmat va savob (A.Qodiriy).

Xudo badnom deganni sangsor qilmoq Bandai mo`min uchun farzi ayndir (A.Muxtor); Kamoliddin maxdum qozining kulgisidagi kinoyani payqamadimi yoki payqasa ham hazil bilan qutilib ketmoqchi bo`ldimi, haytovur:

-Agar mehmon yakta boshad ham gav kushtan lozim, - dedi (M.Ismoilij);

Axir madrasada o`qib yurgan kezlarida "Alxayru mosana`a allohu" deb uqtirishgach ediku?! (M.Ismoilij).

Zamonaviy mavzuda yozilgan asarlardagi jargonlar: ayrim guruhga oid shaxslarning xarakterini ochishda (masalan, ichkilikbozliklar) jargonlardan foydalaniladi: *Quying, qizil ichaman, -dedi Salimboyvachcha (Oybek).*

Qanaqasidan bo`lsin, oqidanmi, qizilidanmi? ("Mushtum").

-Endi shuni ichasiz, Hamid aka.

-Yo`q, Sodiqboy inim, men juda ham bo`lib qoldim, o`zi ham juda kuchli chiqqan ekan.

-Ichmasangiz, quymayman.

Nikin!..

-Bitta-ya. Yarimtadan uch-to`rt-t-t-anga qarzlari bore di (A.Qodiriy);

Ayrim qahramonlar nutqini individuallashtirish uuchun jargon so`zlar ishlatiladi. Bunda ko`pincha o`zbek adabiy tiliga o`zlashmagan, boshqa tilga xos so`zlar qo`llaniladi.

Agar men andisha qilmasam –eski shahardagi solinaturgan teatr binosining muboshirlari kam harj-u bolonishin deb “jangoh”ga solib bergan teatrlarida qurbaqalar teatr-u qo`ch boshladilar deb xabar yozmasmi edim?(A.Qodiriy).

Hov, andi, yakta choy keltir! Ziqnalik qilma, chumoli yursa, oyog`i botmaydigan otangni arvoyi... Xudo haqqi galavam aynidi. Ha, Tuyamo`yinga nima qilibdi... (S.Siyoyev). Qirmizixon, chetroqqa o`tdi, uning orqasidan mahliyo bo`lganicha yurib, Bashirjon ham .“Oyog`i butilichniy ekan!”– lip etib, hayolidan kechdi uning (N.Aminov).

Jargonlarning manbalari. So`zning shakli butunlay o`zgarganidan qaysi tilga xosligini aniqlash qiyin bo`lgan so`zlar va sun`iy so`zlar: *danap*-ayol o`yinchi (otarchilar), *noyvor*-jim bo`l (otarchilar), *hashpakchi*-doirachi (otarchilar), *kogon*-o`yinsiz ashula (otarchilar), *atas*-xavf-hatar (savdogarlar).

Boshqa tildan kirgan so`zlar: *yakan*-pul (otarchilar), *zamri*-qimirlamay qol, *umri*-ko`zingni yum (o`l), *oskrasni* (voskresni)- harakatni davom ettir (tiril), *atamri*-qimirlay ber(rus tilidan) kabi.

So`zning bo`g`inlariga harf qo`shib, so`z shaklini sun`iy o`zgartirish yo`li bilan yasalgan jargonlar: yosh qizlar, ba`zan yigitlar o`z nutqlarini boshqalardan yashirish uchun har bir bo`g`inning boshiga *ch* harfini, ikkinchi bo`g`indan boshlab, har bir undoshdan oldin *za* qo`shib gapiradilar, *chbochrachman*-boraman, *chaychkachman*-aytaman, *mezan*-men, *bozaramazaman*-boraman.

Umuman aytganda, jargonlar ayrim guruhlargagina oid chegaralangan leksika bo`lib, ular ko`pincha o`tkinchi bo`ladi, chunki jargonlarni qo`llovcbhi

guruhlarning ko`pchiligi asosan vaqtincha uyushgan jamoa bo`ladi, ana shu jamoa tarqalib ketishi yoki tugashi bilan jargon so`zlar ham asosan unutiladi, qo`llanilmay qoladi. Masalan, bo`g`in boshiga *ch* harfi, *za* qo`shib aytish hozir deyarli qo`llanilmaydi. Shuningdek, turli yerda bir xil jamoada bir so`zning turlicha qo`llanilishi jargonlarga dialektlarning ta`siri ham borligini ko`rsatadi. Ba`zan yana shunday tor guruhlardagina qo`llaniladigan so`zlar ko`pchilikka tushunarli, ko`pchilik qo`llaydigan so`zlarga aylanadi. Masalan, *dum*-“2” baho, *quyon bo`lish*-qochib ketish.

Argo ham jargon kabi so`zlashuv nutqda va badiiy adabiyotda sotsial – ramziy vazifa bajarish uchun ishlatiladi

Jargon va argolar ko`pincha o`tkinchi bo`ladi. To`da va guruhlarning tarqalib ketishi yoki tugashi bilan jargon va argolar ham unutiladi.

X U L O S A

Keyingi davr yozuvchilari nasriy asarlari xususidagi ilmiy tadqiqotlar xarakteri, asosan, adabiy tahlil doirasida ekanligi va bu jihatdan badiiy matn lingvopoetik nuqtayi nazardan o'rganishga ehtiyoj ortganligi masalaning dolzarbligini belgilaydi.

“Lingvopoetika” atamasi badiiy asar tilini o'rganishda nisbatan keng qamrovli tushunchani o'z ichiga olib, asarning badiiyligini ta'minlovchi unsurlarni tilning lingvopoetik tahlil asos qilib olindi.

Nutqning tozaligi deganda unda til elementlarining ishlatilishida adabiy til me'yorlarida amal qilish-qilmasliktushuniladi.

O'zbek tili lug'at tarkibining asosiy qismini o'zbek xalqining barcha a'zolari uchun umumiy bo'lgan va qo'llanilishida muayyan hudud yoki ma'lum faoliyat sohalari bilan chegaralanmagan leksika tashkil qiladi. Qo'llanish doirasiga ko'ra chegaralanmagan leksikaga kundalik hayotda tirikchilik munosabatlari uchun eng zarur bo'lgan narsa va hodisa, jarayonlarni anglatadigan so'zlar kiradi. Chegaralanmagan leksik qatlam asosan turg'un bo'lib, o'zbek tilining barcha uslublarida qo'llanila oladi.

Ayrim sheva va dialektdagi so'zlarning adabiy tilga o'tishi bilan ular chegaralanmagan qatlamga xos bo'la boshlaydi. Chegaralanmagan qatlamga so'zlashuv leksikasi, terminologik leksikaning bir qismi, adabiy til leksikasining asosiy qismi kiradi.

Varvarizmlar badiiy nutqda yozuvchining mahorati bilan o'ziga xos estetik vazifani bajaradigan vositaga aylanadi. Badiiy asardagi personajlarning xarakteri, ichki dunyosi, madaniy – ma'rifiy saviyasi kabi bir qator jihatlarni ta'kidlab ifodalashda varvarizmlar alohida o'rin tutadi.

Vulgarizmlarni ma'no ottenkasi va qo'llanish doirasiga ko'ra 3 guruhga bo'ladi:

a) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar: *dum, tekinxo'r, ayyor, buzuq, xomkalla, xumpar, qo'shmachi, noinsof, xotinfurush, mag'zava, yuzsiz, esipas, lanj, latta, ig'vogar, majmagil odam,*

mazasi yo 'q, xotinboz;

b) kishining tashqi kamchiligini ko'rsatuvchi vulgarizmlar: *mechkay, ko'ppak, maymoq, ilonbosh, simyog'och, qovoqbosh, ayronbosh, gumbaz, bordonday, qo'ng'iz, mo'ylov, kal, do'rdoq, qiyshiq, qo'tir, pataksoqol, paxmoq, surpaquloq, shikit, daroz, akildoq, paytava quloq, so'loqmon, quti uchdi, bir oyog'i yerda bo'lsa, bir oyog'i go'rda;*

v) so'kish, koyish ma'nosini ifodalovchi vulgarizmlar: *bachchag'ar, yaramas, ablah, xumpar, nomard, badbaxt, nonko'r, gumroh, qistaloq, ahmoq, sintaloq, xotin-taloq, galvars, kasofat, naxs, ko'ppak, la'nati, tentak, iblis, shallaqi, itvachcha, juvonimarg, isqirt, benomus, iflos, haromi, bedavo, go'rso'xta, vaysaqi; achimay o'lgur, esi og'moq (telbalanmoq), og'zi katta (kibr-havola), nazari ilmaydi (mensimaslik);*

g) qarg'ishlar: Ularni anglatgan ma'nolari jihatidan quyidagi 7 guruhlarga bo'lindi.

- 1.O'lim tilash mazmunini ifodalovchi
- 2.G'azab-nafrat mazmunini ifodalovchi
- 3.Yomon istak (tilak) mazmunini ifodalovchi
- 4.Shaxsga nisbatan nafrat va baxtsizlik ifodalovchi
- 5.Og'ir qarg'ish mazmunini ifodalovchi
- 6.Duoyi bad qilish ifodalovchi
- 7.Yengil qarg'ish mazmunini ifodalovchi

Dialogik nutqda, so'zlovchi va suhbatdosh o'zaro fikr almashuv jarayonida ayrim so'zlar, so'z birikmalari hamda vulgarizmlardan foydalanish.

Tilning ijtimoiy-dialektal qatlamiga mansub so'zlar badiiy adabiyotda voqelikni ishonarli chiqishi uchun personajlar nutqini individuallashtirish vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Argo ham jargon kabi so'zlashuv nutqda va badiiy adabiyotda sotsial – ramziy vazifa bajarish uchun ishlatiladi

Jargon va argolar ko'pincha o'tkinchi bo'ladi. To'lda va guruhlarning tarqalib ketishi yoki tugashi bilan jargon va argolar ham unutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983.
3. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. - Тошкент: Фан, 1981.
4. Абдурахмонов Ш. Ўзбек бадиий нутқида кулги қўзғатувчи лисоний воситалар. -Тошкент, 1997.
5. Бегматов Э. Адабий норма ва нутқ маданияти. -Тошкент, Фан, 1983.
6. Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи. Самарқанд, 2004.
7. Бобониёзова А.Й. Абдулла Қодирийнинг Ўтган кунлар романида тасвирий воситалар ва тил бадиати: Ф.ф.н.дисс.автореф. – Т.,1995.
8. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М: Высшая школа, 1991.
9. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. -Тошкент 1988.
- 10.Йўлдошев Б. Саид Аҳмад асарларида тил ва услуб. -Тошкент. – Фил.фан.номз.дис. автореф. 1978.
- 11.Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Фан, 2007.
12. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. -Тошкент, Маънавият, 2002.
13. Йўлдошев М.Бадиий матн лингвопоэтикаси. - Тошкент: Фан, 2008.
- 14.Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлили. –Т.:, Ўқитувчи, 1995.
- 15.Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Т.: Talqin. 2005.
16. Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нутқида антитеза. –Тошкент, 2000
17. Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. – Т.: Фан, 1988.
18. Омонтурдиев А. Профессионал нутқ эвфемикаси. –Тошкент, 2009.
19. Расулов Р., Хусанов Н., Мўйдинов Қ.. Нутқ маданияти ва нотиклик санъати Тошкент: “Иқтисод-молия”, 2006.
20. Рихсиева Г. Лингвопоэтик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар.// Ўзбек тили ва адабиёти. – 2003 - № 2. – Б. 84-86.

21. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva., Qurbonova M., Yunisova Z., Abdullayeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: Fan va texnologiya, 2009.
22. Содиқова М. Феъл стилистикаси. Тошкент 1975 йил.
23. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Т., Фан, 1990.
24. Ўзбек тили стилистикаси. -Тошкент, Ўқитувчи, 1983.
25. Ўзбек тили лексикологияси. –Т.: Фан, 1981.
26. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –М.: Наука, I-II, 1981.
27. Ўзбек тили лексикологияси. -Тошкент, Фан, 1981.
28. <http://ziyonet.uz>.